

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**



Ro'yxatga olindi:

SamDU o'quv ishlari
prorektori prof. A.Soleev

№ _____
2019 _____ yil
“ ” _____

2019 yil “ ” _____

**«MAKTABGACHA TALIM NAZARIYASI VA METODIKASI»
KAFEDRASI
“MAKTABGACHA TA'LIMNI O'QITISH TEXNOLOGIYALARI
VA LOYIHALASHTIRISH”**

**FANI BOYICHA
O'QUV USLUBIY MAJMUA**

Bilim sohasi: 100000 - Gumanitar

Ta'lim sohasi: 110000 - Pedagogika

Ta'lim yo'nalishi: 5111800 - Maktabgacha ta'lim

Tuzuvchi: SamDU Maktabgacha ta'lim fakulteti,
Maktabgacha ta'lim nazariyasi va metodikasi'
kafedra dotsenti SH.Fayzullayev

Kafedra mudiri: dots. E.M.Mardanov

Fakultet uslubiy

kengash raisi

dots. T.Ostonov

Fakultet dekani:

prof. B.T.Xaydarov

O'quv uslubiy

boshqarma boshlig'i

dots.B.S.Aliqulov

Samarqand-2019

MUNDARIJA

I-Sillabus..... 3

1. Fanining annotasiyasi
2. Mualliflar xaqida ma'lumot
3. Normativ xujatlar:

Ishchi o'quv reja

- 3.1 O'quv dasturi
- 3.2 Ishchi o'quv dasturi
- 3.3 Kalendar – tematik reja

II-Taqdimotlar..... 16

4. Ta'lim texnologiyasi:
- 4.1 Mashg'ulotlarning pedagogik texnologiyasi
- 4.2 Mashg'ulotlarning texnologik xaritasi
5. Nazorat matearlari:
- 5.5 Topshiriqlar mazmuni
- 5.6 ON, Yan uchun testlar
- 5.7 Yozma ish va og'zaki nazoratlar savollari(variantlar)

III-keys-stadi..... 63

- 6 O'quv matearllari:
- 6.1 Ma'ruza matni
- 6.2 Masala va mashqlar to'plami
- 7 Amaliyot mashg'ulotlarning ishlanmalari, ularni o'tkazish va ko'llash boyicha uslubiy tavsiyalar..... 86
- 8 Tarkatma materiallar (referat mavzulari, adabiyotlar royxati, baxolash mezonlari, xorijiy manbalar)
- 9 Mustaqil ish mavzulari va uni bajarish boyicha uslubiy tavsiyalar
- 10 Kurs ishlari mavzulari va ularni bajarish boyicha uslubiy tavsiyalar
- 11 Glosariy

Qo'shimcha metodik materiallar.....92

- 12 Ilova:
- 12.1 Ishchi o'quv rejada ko'rsatilgan darsliklar, o'quv qo'llamalar
- 12.2 Uslubiy qo'llamalar, uslubiy kursatmalar
- 12.3 Elektron darslik va boshqa elektron o'quv materiallari

**« MAKTABGACHA TA'LIMNI O'QITISH TEXNOLOGIYALARI VA
LOYIHALASHTIRISH »**

**fanining
2019-2020 o'quv yili uchun mo'ljallangan
SILLABUSI**

Fanning qisqacha tavsifi									
OTMning nomi va joylashgan manzili:		Samarqand Davlat Universiteti				Spitamenshoh ko'chasi 166			
Kafedra:		Maktabgacha ta'lim nazariyasi va metodikasi							
Ta'lim sohasi va yo'nalishi:		Maktabgacha ta'limni o'qitish texnologiyalari va loyihalashtirish		5111800 - maktabgacha ta'lim					
Fanni (kursni) olib boradigan o'qituvchi to'g'risida ma'lumot:		Fayzullayev Sharipboy Nurullayevich		e-mail:			fayzullaeva81@mail.ru		
Dars vaqti va joyi:		Fakultet binosi		Kursning davomiyligi:			15.10.2018-01.07.2019		
Individual grafik asosida ishlash vaqti:									
Fanga ajratilgan soatlar		Auditoriya soatlari						Mustaqil ta'lim:	
		Ma'r uza:		Amaliyot		Seminar			
Fanning boshqa fanlar bilan bog'liqligi (prerekvizitlari):		“Maktabgacha ta'lim pedagogikasi va psixologiyasi”, “Ma'naviyat”, “Tarix”, “Nutq madaniyati”, “Bolalar adabiyoti” “Falsafa” va boshqa fanlar							
Fanning mazmuni									
Fanning dolzarbligi va qisqacha mazmuni:		Fanni o'qitishdan maqsad – “Maktabgachagacha ta'limni o'qitishda texnologiyalari va loyixalashtirish“ fani MTM larda olib boriladigan tarbiyaviy ishlarni, o'quv tarbiyaviy mashg'ulotlarni loyihalashtirish va ularni tashkil etish yo'llarida ijodiy ravishda faoliyat ko'rsatishlarida fanni o'rganish orqali egallab boradilar. Dasturda maktabgacha ta'limda							

	maktabgacha ta'limni o'qitishda texnologiyalari va loyixalashtirish fanining nazariy jixatlari asoslab berilgan. Maktabgacha ta'limni oqitishda texnologiyalari va loyihalashtirish o'quv fanini o'zlashtirish uchun zarur bo'lgan birlamchi ma'lumotlar yoritilgan. <u>Fanning vazifasi</u> - maktabgacha ta'limda shaxsga yo'naltirilgan, rivojlantiruvchi texnologiyalardan foydalanish, ta'lim jarayonini rejalashtirishda <i>bilishi, ko'nikma hosil qilishi kerak</i>; rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyalari; maktabgacha ta'lim muassasalarida muammoli o'qitish texnologiyalari; maktabgacha ta'lim muassasalarida kompyuterli o'qitish texnologiyalarini loyihalashtirish; - maktabgacha ta'limda individuallashtirilgan ta'lim texnologiyalarini loyihalashtirish <i>malakaga ega bo'lishi lozim</i>.
Talabalar uchun talablar	Fan bo'yicha talabalarni bilim, ko'nikma va malakalariga quyidagi talablar qo'yiladi. Talaba: -maktabgacha ta'limda pedagogik jarayonlarni texnologiyalashtirish va loyihalashtirish -maktabgacha ta'limda texnologik va loyihalashtirish jarayonlari. -maktabgacha ta'limda texnologiyalar va loyihalashtirish turlaridan foydalanish, <i>haqida bilimga ega bo'lishi</i>. -maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya jarayonini texnologiyalashtirish va loyihalashtirishni;
Elektron pochta orqali munosabatlar tartibi	Professor-o'qituvchi va talaba o'rtasidagi aloqa elektron pochta orqali ham amalga oshirilishi mumkin, telefon orqali baho masalasi muhokama qilinmaydi, baholash faqatgina universitet hududida, ajratilgan xonalarda va dars davomida amalga oshiriladi. Elektron pochta ochish vaqti soat 15.00 dan 20.00 gacha
Fan mavzulari va unga ajratilgan saotlar taqsimoti:	

Kirish

Bugungi kunda mustaqil taraqqiyot yo'lidan borayotgan mamlakatimizning uzluksiz ta'lim tizimini isloh qilish takomillashtirish, yangi sifat bosqichiga kotarish, unga ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy qilish hamda ta'lim samaradorligini oshirish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi "Ta'lim to'g'risida" gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" ning qabul qilinishi bilan uzluksiz ta'lim tizimi orqali zamonaviy kadrlar tayyorlashning asosi yaratildi. Jumladan MTM hodimlarini kun sayin oshib borayotgan axborot-ta'lim muhiti sharoitida mustaqil ravishda faoliyat

ko'rsata olishga, axborot oqimidan oqilona foydalanishga o'rgatishdan iboratdir. Buning uchun ularga uzluksiz ravishda mustaqil ishlash imkoniyati va sharoitini yaratib berish zarur.

O'zbekiston, Respublikasi demokratik, xuquqiy va fuqarolik jamiyatini ko'rish yo'lidan borayotgan bir paytda ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning bosh maqsadi va harakatga keltiruvchi kuchi har tomonlama rivojlangan barkamol insonni tarbiyalashdan iboratdir. Ushbu fan dasturi aynan talabalarni bo'lg'usi MTM hodimlari bo'lib yetishib chiqishlarida tarbiyalanuvchilarni kelajak hayotga barkamol shaxs darajasida yetkazishga kasbiy faoliyatida asos hisoblanadi. Fan dasturi MTM talabalarini pedagogik texnologiyalar va ta'lim jarayonini loyihalashtirishga oid bilimlar bilan qurollantirishga xizmat qiladi va amaliyotga tadbiiq etish shart-sharoitlarini ko'rsatishda asos bo'ladi. "Maktabgachagacha ta'limni o'qitishda texnologiyalari va loyixalashtirish" fani MTM larda olib boriladigan tarbiyaviy ishlarni, o'quv tarbiyaviy mashg'ulotlarni loyihalashtirish va ularni tashkil etish yo'llarida ijodiy ravishda faoliyat ko'rsatishlarida fanni o'rganish orqali egallab boradilar.

Dasturda maktabgacha ta'limda maktabgacha ta'limni o'qitishda texnologiyalari va loyixalashtirish fanining nazariy jixatlari asoslab berilgan. Maktabgacha ta'limni oqitishda texnologiyalari va loyihalashtirish o'quv fanini o'zlashtirish uchun zarur bo'lgan birlamchi ma'lumotlar yoritilgan.

Fanining maqsadi va vazifalari

Fanning maqsadi: Bakalavrlarni maktabgacha ta'limni o'qitishda texnologiyalari va loyihalashtirish fan texnikaga doir zamonaviy bilimlarga ega bo'lish, zamonaviy ta'lim texnologiyalari, pedagogic texnologiyalardan foydalanish ko'nikmasi, noan'anaviy mashg'ulotlarni loyixalash va tashkil etish metodlarini bilishi, ta'lim jarayoniga tadbiiq qila olishi, ilg'or pedagogik tajribalarni o'zlashtirish, faoliyatga nisbatan kreativ yondashuv kabilarni o'rgatishdan iborat.

Fanning vazifalari: Maktabgacha ta'limni o'qitishda texnologiyalari va loyixalashtirish fanini o'zlashtirish jarayonida

- maktabgacha ta'limni o'qitishda texnologiyalar va loyihalashtirish fanining vazifalari.
- texnologiya tushunchasining mazmuni va mohiyati. Texnologiyalar va loyihalashtirishning tarixi. Ta'lim jarayonini tashkil etishga nisbatan texnologik yondashuv.
- maktabgacha ta'limda texnologik va loyihalashtirish jarayonlarinig bosqichlari. Maktabgacha ta'lim muassasalarida pedagogik jarayonni loyihalashtirishning tuzilishi va funksiyalari.
- maktabgacha ta'limda shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalar. Pedagogik jarayonni loyihalashtirish. Rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyalari.
- maktabgacha ta'lim muassasalarida muammoli o'qitish texnologiyalari. Maktabgacha ta'lim muassasalarida kompyuterli o'qitish texnologiyalari.
- maktabgacha ta'limda individuallashtirilgan ta'lim texnologiyalari. Maktabgacha ta'lim muassasalarida ishbilarmonlilik o'yinlari texnologiyalari.

Fan bo'yicha talabalarning bilim, ko'nikma va malakasiga qo'yiladigan talablar

Maktabgacha ta'limni o'qitish texnologiyalari va loyihalashtirish fani bo'yicha bakalavr:

- maktabgacha ta'limda pedagogik jarayonlarni texnologiyalashtirish va loyihalashtirish

- maktabgacha ta'limda texnologik va loyihalashtirish jarayonlari.
- maktabgacha ta'limda texnologiyalar va loyihalashtirish turlaridan foydalanish **haqida tasavvurga ega bo'lishi.**
- maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya jarayonini texnologiyalashtirish va loyihalashtirishni;
- maktabgacha ta'limda shaxsga yo'naltirilgan,rivojlantiruvchi texnologiyalardan foydalanish,ta'lim jarayonini rejalashtirishda **bilishi, malaka hosil qilishi va amalda qo'llay olishi.**
- rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyalari;
- maktabgacha ta'lim muassasalarida muammoli o'qitish texnologiyalari;
- maktabgacha ta'lim muassasalarida kompyuterli o'qitish texnologiyalarini loyihalashtirish;
- maktabgacha ta'limda individuallashtirilgan ta'lim texnologiyalarini loyihalashtirish **ko'nikmalariga ega bo'lishi lozim.**

Fanning o`quv rejasidagi boshqa fanlar bilan o`zaro bog`liqligi va uslubiy jihatidan uzviyligi

“Maktabgacha ta'limni o'qitishda texnologiyalari va loyixalashtirish” fani 7-semestrda o'qitiladi. Mazkur fan «Maktabgacha pedagogika», “Bolalar anatomiyasi va fiziologiyasi asoslari” Pedagogik texnologiyalar”, “Maktabgacha ta'limda nutq va o'zga tilga o'rgatish metodikasi»,va boshqa fanlar bilan bog'iqlikda o'tiladi.

Fanning ta'limdagi o`rni

Maktabgacha ta'lim muassasalarida tarbiyachi shaxsi, ta'lim-tarbiyani pedagogik texnologiyalar asosida amalga oshirishi,kommunikatsiya,axborot va ta'lim jarayonini boshqarish usullari muammolari ,tamoyillari, va vositalarining kontseptual asoslari,pedagogik texnologiyalarning yonalishlari,loyixalashtirish tamoyillari «Maktabgacha ta'limni o'qitishda texnologiyalari va loyixalashtirish» fanining o'rne juda kattadir.

Fanni o'qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar

Mazkur kurs zamonaviy-ma'naviy barkamol, har jihatdan sog'lomavlodni, komil inson shakllanishi, rivojlanishini ta'minlanishga har jihatdan yaqindan yordam bermog'i lozim. Kursni o'qitishda yangicha fikrlaydigan, yangicha tafakkur tarziga ega bo'lgan, milliy g'oya va mafkuraning asosiy tamoyillarini o'zida mujassam etgan shaxsni tarbiyalab voyaga etkazishga yordam berish nazarda tutiladi. Mana shu vazifalarni bajarishda bilimni talabalar ongiga singdirish, ularning amaliy faoliyatiga aylantirishda o'qituvchi qanday pedagogik texnologiyalardan ijodiy foydalanishi muhim ahamiyatga ega. Binobarin, darslarga ko'rgazmalilikka - turli albom, plakatlar, badiiy asarlardan namunalar o'qishga alohida ahamiyat berish ham yaxshi natija beradi.

Ushbu fanni o'qitishda pedagogik texnologiyaning aql charxi, BBB, Venna diagrammasi, «Tarmoqlar», «Aqliy hujum», «Bumerang», «Muammoli vaziyat», «Yelpig'ich», «FSMU» “Baliq skeleti”, “Qora quti” kabi usullaridan foydalanish maqsadga muvofiq. Ta'limning interfaol metodlaridan foydalanish darsning qiziqarli bo'lishini ta'minlaydi.

Asosiy qism

Fanning nazariy mashg'ulotlari mazmuni

Maktabgacha ta'limni o'qitishda texnologiyalar va loyihalashtirish fanining vazifalari

Maktabgacha ta'limni o'qitishda texnologiyalar va loyihalashtirish fanining maqsad va vazifalari. Maktabgacha ta'limni o'qitishda texnologiyalar va loyihalashtirish fanining boshqa fanlar bilan bog'liqligi. Maktabgacha ta'limni o'qitishda texnologiyalar va loyihalashtirishning pedagogik asoslari.

Texnologiya tushunchasining mazmuni va mohiyati

“Texnologiya” lar tushunchasi. Texnologiyalarning ta'lim jarayonida tutgan o'rni. Pedagogik texnologiya mezonlari, aspektlari va qo'llanilish darajalari

Texnologiyalar va loyihalashtirishning tarixi

Pedagog olimlar tomonidan texnologiyalarga berilgan ta'riflar. Ta'lim texnologiyasining rivojlanish bosqichlari. Pedagogik texnologiyalarning rivojlanish bosqichlari va o'ziga xos xususiyatlari. Pedagogik texnologiyalarning klassifikatsiyasi.

Ta'lim jarayonini tashkil etishga nisbatan texnologik yondashuv

Ta'lim jarayoni va unga qoyilayotgan zamonaviy talablar. Ana'naviy va noana'naviy ta'lim turlari va ularning o'ziga xos xususiyatlari. Shaxs sifatleri tuzilishi. Ta'lim jarayonida munosabatlarni boshqaruv uslublari.

Maktabgacha ta'limda texnologik va loyihalashtirish jarayonlarinig bosqichlari

Ta'limda innovatsion jarayonlarning o'ziga xosligi. Innovatsion ta'limda texnologik jarayonlarning bosqichlari. Pedagogning innovatsion faoliyati.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida pedagogik jarayonni loyihalashtirishning tuzilishi va funksiyalari

Pedagogik jarayonni loyihalashtirish va ularni tashkil etish, boshqarishning nazariy aspektlari.

Maktabgacha ta'limda shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalar

Shaxs sifatleri tuzilishi. Ta'lim jarayonida munosabatlarni boshqaruv uslublari. Shalva Amonashvilining inson shaxs texnologiyasi.

Pedagogik jarayonni loyihalashtirish

Pedagogik jarayonni loyihalashtirish va ularning funksiyalari. V.F. Shatalov tomonidan ishlab chiqilgan metodlar. S.N. Lisenkova texnologiyasi

Rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyalari

Ta'lim texnologiyasining dolzarbligi. O'yinli texnologiyalar va ularning funksiyalari. O'yinli texnologiyalarning maqsad va vazifalari. Texnologik o'yinlar klassifikatsiyasi.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida muammoli o'qitish texnologiyalari

Muammoli vaziyat usullari. Muammoli o'qitishning mohiyati. Muammoli ta'limni tashkil etish bosqichlari. Muammoli vaziyatning samaradorligi.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida kompyuterli o'qitish texnologiyalari

Maktabgacha ta'lim muassasalarida kompyuterli o'qitish texnologiyalarining metodologiyasi.

Maktabgacha ta'limda individuallashtirilgan ta'lim texnologiyalari

Hamkorlik pedagogikasi texnologiyasining mazmuni va mohiyati. O'qitishning jadallashtirish texnologiyasi. O'qitishni individuallashtirish texnologiyasi.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida ishbilarmonlik o'yinlari texnologiyalari

Ishbilarmonlik oyindan ta'lim jarayonida foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari. Ishbilarmonlik oyinlarining vazifasi. Ishbilarmonlik oyinlarining modifiktsiyasi.

Amaliy mashg'ulotlarini tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlarida bakalavlar ilmiy ijodiy faoliyat bilan shug'ullanib fan sohasidagi yangiliklar bilan amaliy mashg'ulotlarini mazmunini boyitadilar.

Amaliy mashg'ulotlari uchun tavsiya etilgan tahminiy mavzular:

- 1.Maktabgacha ta'limni o'qitishda texnologiyalar va loyihalashtirishning pedagogik asoslari.
- 2.Texnologiyalarning ta'lim jarayonida tutgan o'rni.
- 3.Pedagogik texnologiya mezonlari,aspektlari va qo'llanilish darajalari
- 4.Ta'lim texnologiyasining rivojlanish bosqichlari.
- 5.Pedagogik texnologiyalarning rivojlanish bosqichlari va o'ziga xos xususiyatlari.
- 6.Pedagogik texnologiyalarning klassifikatsiyasi.
- 7.Ana'naviy va noana'naviy ta'lim turlari va ularning o'ziga xos xususiyatlari.
- 8.Shaxs sifatleri tuzilishi.
- 9.Ta'lim jarayonida munosabatlarni boshqaruv uslublari.
- 10.Ta'limda innovatsion jarayonlarning o'ziga xosligi.
- 11.Innovatsion ta'limda texnologik jarayonlarning bosqichlari.
- 12.Pedagogning innovatsion faoliyati .
- 13.Tarbiyachi –pedagogning innovatsion faoliyatini shakllantirish shar-sharoitlari.
- 14.Maktabgacha ta'lim muassasalarida tashkil etilishi va otkazilishi mumkin bo'lgan jamoaviy ijodiy tadbirlar.
- 15.Ta'lim jarayonida munosabatlarni boshqaruv uslublari.
- 16.Pedagogik jarayonni loyixalashtirish va ularning funksiyalari.
- 17.Pedagogik jarayonni loyixalashtirish tarixi.
- 18.Ta'lim texnologiyasi turlari.
- 19.O'yinli texnologiyalar va ularning funksiyalari.

20. Muammoli vaziyat usullari. Muammoli ta'limni tashkil etish bosqichlari. Muammoli vaziyatning samaradorligi.

21. Maktabgacha ta'lim muassasalarida kompyuterli o'qitish texnologiyalarining metodologiyasi. Hamkorlik pedagogikasi texnologiyasining mazmuni va mohiyati.

22. O'qitishning jadallashtirish texnologiyasi. O'qitishni individuallashtirish texnologiyasi. Pedagogik ta'sirda tarbiyachining maxorati.

Seminar mashg'ulotlarini tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Seminar mashg'ulotlarida bakalavlar ilmiy ijodiy faoliyat bilan shug'ullanib fan sohasidagi yangiliklar bilan seminar mashg'ulotlarini mazmunini boyitadilar.

Seminar mashg'ulotlari uchun tavsiya etilgan tahminiy mavzular:

1. "Texnologiya" lar tushunchasi.
2. Texnologiyalarning ta'lim jarayonida tutgan o'rni.
3. Pedagog olimlar tomonidan texnologiyalarga berilgan ta'riflar.
4. Ta'lim texnologiyasining rivojlanish bosqichlari.
5. Pedagogik texnologiyalarning rivojlanish bosqichlari va o'ziga hos xususiyatlari.
6. Ta'lim jarayoni va unga qo'yilayotgan zamonaviy talablar.
7. Shaxs sifatleri tuzilishi. Ta'lim jarayonida munosabatlarni boshqaruv uslublari.
8. Ta'limda innovatsion jarayonlarning o'ziga xosligi. Innovatsion ta'limda texnologik jarayonlarning bosqichlari.
9. Pedagogik jarayonni loyihalashtirish va ularni tashkil etish, boshqarishning nazariy aspektlari
10. Ta'lim texnologiyasining dolzarbligi.
11. O'yinli texnologiyalar va ularning funktsiyalari.
12. Muammoli vaziyat usullari. Muammoli ta'limni tashkil etish bosqichlari.
13. Muammoli vaziyatning samaradorligi.

Mustaqil ta'limni tashkil etishning shakli va mazmuni

Bakalavr mustaqil ta'limni tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- darslik va o'quv qo'llanmalar bo'yicha fan boblari va mavzularini o'rganish;
- tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruzalar qismini o'zlashtirish;

- nazariy material boyicamisolva masala yechish,
- avtomatlashtirilgan o'rgatuvchi va nazorat qiluvchi tizimlar bilan ishlash;
- maxsus adabiyotlar bo'yicha fan bo'limlari yoki mavzulari ustida ishlash;

masofaviy ta'lim.

Bakalavrga mustaqil ta'limning mavzulari beriladi, bu mavzular bo'yicha egallanishi kerak bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar, muddati va topshirish shakli aytiladi. Ko'rsatilgan muddatda nazariy material konspekti, referati ko'riladi, test yoki savol-javob o'tkaziladi. Amaliy xarakterdagi topshiriqlar yechimi ko'rsatiladi va o'xshash misollar yordamida tekshiriladi.

Tavsiya etiladigan mustaqil ta'limning mavzulari:

1. O'zbekistonda pedagogik texnologiyani rivojlanishi.
2. Didaktik jarayon - pedagogik texnologiyaning asosiy omili.
3. "Texnologiya"lar tushunchasi.
4. Ta'lim texnologiyasining dolzarbligi.
5. Pedagogik jarayonni loyixalashtirish va ularning funksiyalari.
6. Yosh avlodni tarbiyalashda pedagogik texnologiyani qo'llash jarayonida O'qituvchilarga quyiladigan talablar.
7. Axborot va pedagogik texnologiya muammolariga oid adabiyotlarning tahlili.
8. Bo'lajak o'qituvchilarning tarbiyalashda kundalik axborotlardan foydalanish usullari.
9. Maktabgacha ta'lim jarayonini axborotlashtirish metodikasi.
10. MTMda kompyuterli o'qitish usullari.
11. Ta'lim texnologiyasi turlari.
12. O'yinli texnologiyalar va ularning funktsiyalari.
13. Texnologik o'yinlar klassifikatsiyasi.
14. Tarbiyaviy jarayonni tashkil etish usullari.ishni individuallashtirish texnologiyasi.
15. Pedagogik texnologiyalarining metodlari.
16. Tarbiyaviy ishlar jarayonida qo'llaniladigan pedagogik ta'sir etish usullari.
17. Ta'lim jarayonida interfaol uslublarni qo'llash tamoyillari.
18. Pedagogik ta'sirda tarbiyachining maxorati.
19. MTMda pedagogik kengashni tashkil etish va loyihalash.

Kirish

XXI asr boshlarida kechayotgan global ijtimoiy-ikdisodiy va geosiyosiy jarayonlar, dunyoning goyaviy-mafkuraviy kiyofasini uzgartirib, yangicha tafakkur va dunyokarashni shakllantirishni takozo etmokda.

Maktabgacha ta'lim tizimi uzluksiz ta'limning birlamchi, eng asosiy buginidir. Mutaxassislarning ilmiy xulosalariga kura, inson uz umri davomida oladigan barcha axborot va ma'lumotlarning 70%ni 5 yoshgacha bulgan davrda oladi. SHu bois bolalarning soglom va bilimli, etuk kadrlar bulib voyaga etishida maktabgacha ta'limjarayonida oladigan tarbiyasi juda muxdm urin tutadi.

Uzbekiston Respublikasining Prezidenti bu tizimga aloxdda e'tibor karatmokda. SHu masalaga doyr bir necha yigilishlar utkazildi, karorlar kabul kilinmokda.

Uzbekiston Respublikasi Prezidenti xuzurida 2017 yil 16 avgust kuni bulib uttan yigilishda maktabgacha ta'lim tizimini tarkibiy jixatdan tubdan islox kilish, mazkur muassasalarga bolalarni tula kamrab olish buyicha muxim vazifalar kuyilgan edi.

Mazkur soxani takomillashtirish maksadida kabul kilingan dasturda maktabgacha ta'lim soxasi uzluksiz ta'lim tizimining birlamchi bugini sifatida, bu jarayonda maktabgacha ta'lim muassasalarining bolalar xuku kiy savodxonligini shakllantirishdagi urni xam da, respublikada ta'lim-tarbiya tizimi va barkamol avlodni tarbiyalash davlat siyosatining asosiy ustuvor yunalishi ekanligi ta'kidlangan. Uzbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 29 dekabrda gi "2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari tugrisida" gi PK-2707-sonli Karorda belgilangan vazifalarni amalga oshirish jarayonida Uzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, bola xukuklariga oid me'yoriy-xukukiy xujjatlar asosida ta'lim soxasida bir kator isloxotlar amalga oshirilmokda.

Modulning ukuv dasturi Uzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevralda gi "Uzbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish buyicha Xdrakatlar strategiyasi tugrisida" gi PF-4947-sonli Farmoni, 2017 yil 26 sentyabrdagi "Pedagog kadrlarni tayyorlash, xalk ta'limi xodimlarini kayta tayyorlash va

ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari tugrisida"gi PK-3289-sonli Karori, shuningdek, 2016 yil 29 dekabrda "2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari tugrisida"gi PK-2707- sonli karori, xamda 2017 yil 9 sentyabrda "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari tugrisida"gi PK-3261-sonli karoridagi zamonaviy talablar asosida maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyachilarini kayta tayyorlash jarayonlarining mazmunini takomillashtirish xam da tarbiyachilarning kasbiy kompetentligi bilan bir katorda xuku kiy savodxonligini xam muntazam oshirib borishni nazarda tutadi. SHu bilan bir katorda maktabgacha ta'limni o'qitish texnologiyalari va loyihalashtirishning mazmun-moxiyatini ochib beradi.

Modulning maksadi va vazifalari

Modulning maksadi: Uzbekiston Respublikasining maktabgacha ta'lim sohasidagi dolzarb muammolar xamda tizim faoliyatini tubdan yaxshilashga karatilgan me'yoriy xujjatlar, inson va fukarolarning, jumladan, bolalarning yangi maktabgacha ta'lim tizimiga o'tishni ta'minlab, maktabgacha ta'limni o'qitish texnologiyalari va loyihalashtirishning mazmun-moxiyatini tushuntirib berishdan iborat.

Modulning vazifalari:

- Uzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining mazmun-moxdyati va unda kafolatlangan xukuk va erkinliklar xamda fukarolarning burchlari bilan tanishtirish;
- Bola xukuklari tugrisidagi Konvensiya, "Bola xukuklari kafolatlari tugrisida"gi qonun, "Bolalarni ularning salomatligiga zarar keltiruvchi axborotdan ximoya kilish tugrisida"gi qonun, Uzbekiston Respublikasi konunchiligida bolalarning xukuklarga oid koidalarning mazmuni bilan tanishtirish;
- maktabgacha ta'lim tizimi faoliyatini tubdan yaxshilashga karatilgan isloxotlar va amalga oshirilayotgan ishlar buyicha ma'lumot berishdan iborat.

Modul buyicha talabalarning bilim, kunikma, malaka va kompetensiyalariga kuyiladigan talablar

Talaba:

maktabgacha ta'lim tizimini tarkibiy jixatdan tubdan islox qilish siyosatning mazmun-moxiyati tugrisida;

Konstitutsiya va konunlarning ustuvorligi va undan kuzlangan maksadlar xakida; xukukiy, goyaviy-mafkuraviy jarayonlarning globallashuv sharoitida ta'lim-tarbiya tizimi oldidagi vazifalarni **bilishi**;

maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish buyicha me'yoriy xujjatlarning mazmun-moxdyatidan uz faoliyatida foydalana olish;

maktabgacha ta'lim tizimida bolalarning xuku k vaerkinliklarini targib etishda yuzaga keladigan muammolar va ularni bartaraf etish yullarini zamon talabi nuktai nazaridan taxlil qilish;

maktabgacha ta'lim tizimida bolalarning xuku k va erkinliklarini targib qilish buyicha belgilangan vazifalarni amaliyotda kullash **kunikmalariga ega bulishi lozim**.

Respublikada maktabgacha ta'lim tizimi va barkamol avlodni tarbiyalash masalasi davlat siyosatining asosiy ustuvor yunalishi ekanligiga uz munosabatini bildirir olish;

Uzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va konunlarida maktabgacha ta'lim tizimiga taallukdi normalaridan ta'lim-tarbiya jarayonida foydalana olish **malakalariga ega bulishi lozim**.

Maktabgacha ta'limda bolalar xukukiy savodxonligini oshirish jarayonida faol ishtirok etish;

ota-onalar bilan ishlash jarayonida bolalarning xukukiy ximoyalarini targib qilish; ta'lim-tarbiya jarayonlarida yuzaga kelgan vaziyatlarga milliy ma'naviy kadriyatlar nuktai nazaridan me'yoriy-xukukiy xujjatlar asosida tezkor va tugri xulosalar chikara olish **kompetensiyalariga ega bulishi lozim**.

Modulni tashkil etish va utkazish buyicha tavsiyalar

Maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishning konseptual asoslari moduli nazariy mashgulotlar shaklida olib boriladi.

Nazariy mashgulotlarda Uzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va konunlari, kabul kilingan me'yoriy-xukukiy xujjatlardagi maktabgacha ta'lim sohasida xukukiy ta'lim va tarbiya berish faoliyatini tubdan yaxshilashga karatilgan isloxoatlarning mazmun-mohiyatini singdirishdan iborat.

Mashgulotlarda texnik vositalardan, katta va kichik guruxlarda ishlash, ekspress-surovlar, "Xar kim xar kimga urgatadi", "SWOT-taxlil", baxs- munozara, Venn diagrammasi, B.B.B. yoki "FSMU" texnologiyalari bilan ishlash va boshqa interaktiv ta'lim usullaridan foydalanish nazarda tutiladi.

Modulning uquv rejadagi boshqa bloklar bilan bogliqligi va uzviyligi

Modul mazmuni uquv rejadagi "Maktabgacha ta'limni rivojlantirishning konseptual asoslari" moduli bilan uzviy boglangan xolda tarbiyachilarning pedagogik tayyorgarlik darajasini va maktabgacha ta'limni o'qitish texnologiyalari va loyihalashtirishni o'rgatishga xizmat kiladi.

Modulning uslubiy jixatdan uzviy ketma-ketligi

Mazkur modul "Ilgor ta'lim-tarbiya texnologiyalari va pedagogik maxorat", "Ta'lim jarayonlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini kullash" va "Mutaxassislik fanlari" bloklaridan avval urgatiladi. Unda keyin urgatiladigan bloklarning mazmuni, yunalishlari va xukukiy jixatlarini maktabgacha ta'limga tatbik etish imkoniyatlarni ochib beradi.

Modulning ta'limdagi urni Tinglovchilarga Uzbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va konunlarida maktabgacha ta'lim sohasida xukukiy ta'lim-tarbiyani amalga oshirishdek dolzarb muammolar va tizim faoliyatini tubdan yaxshilashga karatilgan isloxoatlarning siyosiy xamda xukukiy asoslarini urgatish bilan birga ularni amalda kullash kunikmalarini shakllantirish orkali ta'lim samaradorligini ta'minlashdan iborat.

1.2. Modul buyicha soatlar taksimoti

Modul mavzulari				Jumla dan			
				nazariy	amaliy	kuchma mashg'ulot	Mustakil ta'lim
Maktabgacha ta'limni o'qitishda texnologiyalar va loyihalashtirish fanining maqsad hamda vazifalari.							
Texnologiya tushunchasining mazmun, mohiyati va loyihalashtirishning tarixi							
Ta'lim jarayonini tashkil etishga nisbatan texnologik yondashuv va loyihalashtirish jarayonlarining bosqichlari, tuzilishi, funksiyalari.							
Pedagogik jarayonni loyihalashtirish va rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyalari							
Maktabgacha ta'lim muassasalarida muammoli o'qitish va individuallashtirilgan ta'lim texnologiyalari							
Jami:							

« MAKTABGACHA TA'LIMNI O'QITISH TEXNOLOGIYALARI VA LOYIHALASHTIRISH »

1-mavzu: Maktabgacha ta'limni o'qitishda texnologiyalar va loyihalashtirish fanining maqsad hamda vazifalari. (2 soat ma'ruza)

Bugungi kunda mustaqil taraqqiyot yo'lidan borayotgan mamlakatimizning uzluksiz ta'lim tizimini isloh qilish takomillashtirish, yangi sifat bosqichiga kotarish, unga ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy qilish hamda ta'lim samaradorligini oshirish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi "Ta'lim to'g'risida" gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi " ning qabul qilinishi bilan uzluksiz ta'lim tizimi orqali zamonaviy kadrlar tayyorlashning asosi yaratildi. Jumladan MTM hodimlarini kun sayin oshib borayotgan axborot-ta'lim muhiti sharoitida mustaqil ravishda faoliyat ko'rsata olishga, axborot oqimidan oqilona foydalanishga o'rgatishdan iboratdir. Buning uchun ularga uzluksiz ravishda mustaqil ishlash imkoniyati va sharoitini yaratib berish zarur.

O'zbekiston, Respublikasi demokratik, xuquqiy va fuqarolik jamiyatini ko'rish yo'lidan borayotgan bir paytda ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning bosh maqsadi va harakatga keltiruvchi kuchi har tomonlama rivojlangan barkamol insonni tarbiyalashdan iboratdir. Ushbu fan dasturi aynan talabalarni bo'lg'usi MTM hodimlari bo'lib yetishib chiqishlarida tarbiyalanuvchilarni kelajak hayotga barkamol shaxs darajasida yetkazishga kasbiy faoliyatida asos hisoblanadi. Fan dasturi MTM talabalarini pedagogik texnologiyalar va ta'lim jarayonini loyihalashtirishga oid bilimlar bilan qurollantirishga xizmat qiladi va amaliyotga tadbiiq etish shart-sharoitlarini ko'rsatishda asos bo'ladi. "Maktabgachagacha ta'limni o'qitishda texnologiyalari va loyihalashtirish" fani MTM larda olib boriladigan tarbiyaviy ishlarni, o'quv tarbiyaviy mashg'ulotlarni loyihalashtirish va ularni tashkil etish yo'llarida ijodiy ravishda faoliyat ko'rsatishlarida fanni o'rganish orqali egallab boradilar.

Dasturda maktabgacha ta'limda maktabgacha ta'limni o'qitishda texnologiyalari va loyihalashtirish fanining nazariy jixatlari asoslab berilgan. Maktabgacha ta'limni oqitishda texnologiyalari va loyihalashtirish o'quv fanini o'zlashtirish uchun zarur bo'lgan birlamchi ma'lumotlar yoritilgan.

Fanning maqsadi: Bakalavrlarni maktabgacha ta'limni o'qitishda texnologiyalari va loyihalashtirish fan texnikaga doir zamonaviy bilimlarga ega bo'lish, zamonaviy ta'lim texnologiyalari, pedagogic texnologiyalardan foydalanish ko'nikmasi, noan'anaviy mashg'ulotlarni loyihalash va tashkil etish metodlarini bilishi, ta'lim jarayoniga tadbiiq qila olishi, ilg'or pedagogik tajribalarni o'zlashtirish, faoliyatga nisbatan kreativ yondashuv kabilarni o'rgatishdan iborat.

Fanning vazifalari: Maktabgacha ta'limni o'qitishda texnologiyalari va loyihalashtirish fanini o'zlashtirish jarayonida

- maktabgacha ta'limni o'qitishda texnologiyalar va loyihalashtirish fanining vazifalari.
- texnologiya tushunchasining mazmuni va mohiyati. Texnologiyalar va loyihalashtirishning tarixi. Ta'lim jarayonini tashkil etishga nisbatan texnologik yondashuv.

- maktabgacha ta'limda texnologik va loyihalashtirish jarayonlarinig bosqichlari.Maktabgacha ta'lim muassasalarida pedagogik jarayonni loyihalashtirishning tuzilishi va funksiyalari.
- maktabgacha ta'limda shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalar.Pedagogik jarayonni loyihalashtirish. Rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyalari.
- maktabgacha ta'lim muassasalarida muammoli o'qitish texnologiyalari. Maktabgacha ta'lim muassasalarida kompyuterli o'qitish texnologiyalari.
- maktabgacha ta'limda individuallashtirilgan ta'lim texnologiyalari. Maktabgacha ta'lim muassasalarida ishbilarmonlik o'yinlari texnologiyalari.

Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017-yil 30-sentabrda “Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi farmonini imzoladi. Ushbu hujjat asosida Maktabgacha ta'lim vazirligi tashkil etildi. Bir so'z bilan shu kundan e'tiboran yurtimiz maktabgacha ta'lim tizimida yangi davr boshlandi desak, xato bo'lmaydi. Uzluksiz ta'lim tizimining ilk bo'g'inini yanada takomillashtirishda maktabgacha ta'lim muassasalarini malakali pedagog kadrlar, shuningdek, didaktik materiallar, o'yin va o'yinchoqlar, badiiy adabiyotlar bilan ta'minlash, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, muassasalarga bolalarni qamrab olishni keskin oshirish, ta'lim-tarbiya jarayonlariga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish, bolalarning sog'lom, to'g'ri ovqatlanishi uchun sharoit yaratish hamda salomatligini himoya qilish g'oyat muhim vazifa hisoblanadi. Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, ilg'or xorijiy tajribalarni hisobga olgan holda maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish yangi vazirlik oldiga qo'yilgan asosiy vazifalardan biri sanaladi. Joriy yilning noyabr oyida Maktabgacha ta'lim vazirligi tomonidan Koreya Respublikasida yigirmaga yaqin uchrashuvlar o'tkazilib, O'zbekistonda eksperimental tarzda Koreya modeli elementari qo'llaniladigan maktabgacha ta'lim muassasalarini ochish, birgalikda kadrlar tayyorlash va ilmiy izlanishlar olib borish bo'yicha kelishuvlarga erishildi. Muzokaralar davomida vazirlik mutaxassislari tomonidan Koreyaning qator maktabgacha ta'lim muassasalariga tashrif uyushtirilib, ulardagi faoliyat, o'ziga xos jihatlar, ta'lim berish usullari, muassasaga qabul, to'lov, moliyalashtirish tizimlari, shuningdek, pedagog-xodimlarning malakasi, xizmat sharoiti va imkoniyatlari atroflicha o'rganildi.

Koreyada inklyuziv ta'lim prinsiplariga amal qilinadi, ya'ni imkoniyati cheklangan bolalar tengdoshlaridan ajratilmaydi, balki birga ta'lim-tarbiya beriladi. Bundan tashqari, kam ta'minlangan oila farzandlari va nogiron bolalarga birinchi navbatda g'amxo'rlik ko'rsatiladi.

Koreya ta'lim tizimi uchun kadrlar tayyorlashga ixtisoslashgan va tasarrufida maktabgacha ta'lim muassasalari bo'lgan oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikni rivojlantirish maqsadida Sangmyong universiteti (Sangmyung University) hamda Chung-Ang universiteti (Chung-Ang University) bilan Hadli kelishuvlar imzolandi, shuningdek, Chonnam Milliy universiteti (Chonnam National University) bilan hamkorlik memorandumlari imzolandi. Shu o'rinda aytib o'tish kerakki, yurtimizda oliy ta'lim muassasalari maxsus sirtqi bo'limlarining "Maktabgacha ta'lim" yo'nalishi bo'yicha 2018–2023-yillar uchun kvotalar ajratish masalasiga e'tibor qaratilmoqda. Ta'lim-tarbiyani rivojlantirish jarayonida o'quv-uslubiy materiallarni takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Maktabgacha ta'lim vazirligi Seul bolalarni erta rivojlantirishga ko'maklashish instituti (Seoul Early Childhood Education Promotion Institute) bilan uchrashuv davomida kelgusida qo'shma tadqiqotlar o'tkazish, tajriba almashish, hamkorlikdagi ilmiy-amaliy tadqiqot muassasalarini tashkil etish, o'quv-uslubiy materiallarni tayyorlash borasida hamkorlik qilishga kelishib oldi. Eng muhim va samarali muzokaralar Koreya Respublikasi Ta'lim vazirligining Maktabgacha ta'lim va bola parvarishi Departamentida bo'lib o'tdi. Departament mutaxassislari yurtimiz delegatsiyasiga Koreyadagi maktabgacha ta'lim va bola parvarishi bosqichlari, maktabgacha ta'lim tizimida samarali qo'llanib kelinayotgan NURI ("Butun dunyo") Milliy dasturi, tizimni rivojlantirish strategiyasi to'g'risida ma'lumot berishdi.

Mana shunday muzokaralar natijasi o'laroq, joriy yil noyabr oyi so'ngida Koreya Respublikasi Ta'lim vazirligining Maktabgacha ta'lim va bola parvarishi Departamenti mutaxassisi O Kyong Mi tomonidan uch kun davomida soha jonkuyarlariga seminar o'tkazildi.

Mutaxassis jismoniy barkamollik, nutq ravonligi, ijtimoiylashuv, ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish va atrof-olamni o'rganishni o'z ichiga olgan 5 bo'limdan tashkil topgan NURI Milliy dasturi va uning ta'lim-tarbiya tizimida qay tarzda joriy etilgani bilan tanishtirdi. Bundan tashqari, O Kyong Mi Koreya maktabgacha ta'lim tizimida ko'plab

jarayonlar, xususan, muassasaga hujjatlarni topshirish, qabul, ro'yxatga qo'yish, ota-onalar tomonidan tarbiyachilarni baholash kabilar onlayn tartibda ekanini ta'kidlab o'tdi.

– Hujjatlarning onlayn tartibda topshirilishi zamonaviy ota-onalarning qimmatli vaqtini ancha tejaydi, – deydi O Kyong Mi. – Bizda davlat MTMlarida ta'lim-tarbiya jarayonining sifatliligi hamda bepulligi bilan birga, ular sonining nisbatan kamligi (24 foiz davlat, 74 foiz nodavlat) sabab bolaning unga qabul qilinishi ota-onalar tomonidan xuddi lotoreyada yutganday qabul qilinadi. Zero, ilgarilari MTMga qabul qilish tanlovi kuni ko'plab ota-onalar ishdan javob olib, bu jarayonda bevosita ishtirok etishar edi. Endilikda ular farzandining muassasaga qabul qilinganmi yoki yo'qligini o'z kompyuteri orqali aniqlashi mumkin. Chunki mana shunday murakkab jarayon onlayn tarzda amalga oshirilmoqda.

Alohida e'tibor qaratish lozim bo'lgan bir jihat, yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida “Bolalarni davlat maktabgacha ta'lim muassasalariga qabul qilish va navbatga qo'yish bo'yicha elektron dastur”ni joriy etish bo'yicha topshiriq berildi. Shunday ekan, ko'p o'tmay bizning maktabgacha ta'lim tizimimizda ham elektron qabul xizmati ishga tushishi kutilmoqda.

– Koreya maktabgacha ta'lim tizimida tarbiyalanuvchi va ota-onalarning xohish-istaklariga alohida e'tibor bilan qaraladi, – ta'kidlaydi O Kyong Mi. – Masalan, mashg'ulot xonasi turli xil burchaklardan (konstruktorlar, kitoblar, yumshoq o'yinchoqlar va h.k.) tashkil topgan bo'lib, bola o'zi istagan burchakda vaqtini o'tkazadi. Bundan tashqari, tushlikdan so'ng bolalar ota-onalarining xohishiga ko'ra uyquga ketadi. Agar ota-ona buni istamasa, bola passiv mashg'ulotlar bilan shug'ullanadi.

Seminar davomida koreyalik mutaxassis pedagoglar malakasini oshirish hamda sohani takomillashtirish tendensiyalari haqida ham gapirib, o'zbekistonlik hamkasblarini qiziqtirgan savollarga javob berdi. Xullas, pedagoglar ta'lim jarayonida joriy qilish mumkin bo'lgan ko'plab qimmatli ma'lumotlarga ega bo'ldi. Koreya singari rivojlangan mamlakatning sinovdan o'tgan tajribasi O'zbekiston maktabgacha ta'lim tizimini isloh qilishda, albatta, asqatadi.

MTM mashg'ulotlarida ta'lim-tarbiya berishda interfaol usullardan foydalanishdan maqsad:

- bolalarni ijodiy fikrlashga o'rgatish;
- muammoli vaziyatlarni yecha olish ko'nikmasini rivojlantirish;
- bolalarni faollashtirish;
- ularda do'stona munosabatlarni shakllantirish.

Interfaol metodlarni qo'llashda foydalaniladigan vositalar:

- ko'rgazmali qurollar;
- texnika vositalari;
- tarqatma materiallar;
- multimedialar.

MTMlarda mashg'ulotlar davomida eng keng qo'llaniladigan usullardan biri mantiqiy fikrlashga undovchi o'yinlardir.

Mashg'ulotlarda bunday o'yinlardan foydalanish:

1. Har bir bolaga individual qobiliyatini namoyon etishga sharoit yaratadi.
2. Mantiqiy o'yinlar aniqligi, izchilligiga ko'ra, bola rivojlanishining eng ta'sirchan davriga to'g'ri keladi.
3. Mantiqiy o'yinlar orqali bola atrof-muhit haqidagi tasavvurlarini anglashga urinadi.
4. Bunday o'yinlar bolani ham ruhiy, ham jismoniy jihatdan rivojlantira oladi.
5. Mantiqiy o'yinlar orqali bolalar o'z oldiga maqsad qo'yib, unga erishish yo'llarini izlab topadi.
6. Mazkur o'yinlar bolalarni qiyin vaziyatdan qutulish choralarini izlab topishga, fikrlarini bayon etishda bir xillikdan qochishga o'rgatadi.

Misol keltiramiz:

1. Guruhga 2 ta qutichada sovg'a olib kelinadi. Birida mevali va manzarali daraxtlar rasmi. Ikkinchisida esa shu daraxtlar bargi. Bolalar har bir daraxtga tegishli barglarini topishlari kerak.
2. Guruhga kasbga oid rasm va predmetlar solingan 2 ta xatjild beriladi. Bolalar qaysi kasb egasiga qanday ish quroli zarurligini aniqlashlari hamda kasblarning hayotdagi o'rni haqida so'zlab berishlari lozim.

Bu usul bolalarni mashg'ulotga ruhiy tayyorlashda katta ahamiyat kasb etadi. Tarbiyachi bolalarga hazil savollar berishi, she'rlardan parcha aytishi, qiziqarli o'yinlar tashkil etishi mumkin. Masalan:

Ko'tarib kelib to'rva, echki pishirdi sho'rva.

Suzib ikki tovoqqa, berdi ikki uloqqa.

Uloqlar to'yishmadi, onasin qo'yishmadi,

Taqillatib tovoqni, teshay dedi quloqni.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida tashkil etilayotgan mashg'ulotlarda qo'llanilayotgan interfaol usullar ta'lim samaradorligi hamda muhitini yaxshilaydi. Tarbiyachilarning kasbiy mahorati oshadi, bolalar ijtimoiy muhitda, jamoasida o'z o'rnini his qila boshlaydi. Hozirgi kun talabi tez o'zgaruvchan, murakkab va o'zaro bir-biriga bog'liq dunyoda o'z o'rnini topa oladigan shaxsni tarbiyalashdir.

Mavzu: Hasharotlar olamiga sayohat

Ta'limiy maqsad: mashg'ulot davomida interfaol usullarni qo'llash orqali bolalarning fikrlash doirasini kengaytirish, so'zlarni bo'g'inlarga bo'lish, tovushli arifmetik amallarni bajarishga o'rgatish.

Tarbiyaviy maqsad: bolalar o'rtasida do'stona munosabatni yaratish, kichik guruhlarda ishlashga o'rgatish, tabiatga va undagi jonivorlarga mehr uyg'otish.

Rivojlantiruvchi maqsad: bolalar xotira va tafakkurini topishmoqlar orqali rivojlantirish, jismonan sog'lom, ma'nan barkamol shaxsning shakllanishiga ko'maklashish.

Kerakli materiallar: hasharotlar surati, tabiatning go'zal manzarasi, maysazor, plastilin, maxsus plastmassa idish, magnit doska, mo'yqalam, bo'yoq, oq qog'oz.

Xona maysazor, daraxt va hasharot (o'yinchoq)lar bilan bezatiladi.

Mashg'ulotning borishi:

Tarbiyachi: – Bolalar, biz qayerga keldik?

Bolalar: – Maysazorga keldik.

Tarbiyachi: – Yaxshilab tinglab, quloq soling. Nimaning ovozi eshityapsiz?

Bolalar: – Hasharotning ovozi.

Tarbiyachi: – Qaysi hasharotning ovozi?

Bolalar: – Chigirtkaning ovozi.

Tarbiyachi: – Chigirtka qanday ovoz chiqaradi va yuradi?

Bolalar: – “Chirq-chirq” deb ovoz chiqaradi, sakrab-sakrab yuradi (bolalar taqlid qilishadi).

Tarbiyachi: – Yana qanday hasharotning ovozi eshityapsiz?

Bolalar: – Asalari ovozi.

Tarbiyachi: – Asalari qanday ovoz chiqaradi va harakatlanadi?

Bolalar: – Asalari “vizz” deb ovoz chiqaradi va mana bunday uchadi (bolalar yana taqlid qilishadi).

Tarbiyachi: – Juda yaxshi. Bolajonlar, biz hasharotlarga taqlid qilish orqali Ch, Z tovushlarining talaffuzini ham bilib oldik.

Hozir biz sizlar bilan qiziqarli o'yin o'ynaymiz. Qani, bolalar yarim doira bo'lib turib olaylik-chi!

Bolalar yarim doira bo'lib turadilar.

Tarbiyachi: – Qo'llarimizni balandga qanday ko'taramiz?

Bolalar: – Daraxtlar kabi.

Tarbiyachi: – Qo'llarimizni qanday ushlaymiz?

Bolalar: – Tog'lar kabi.

Tarbiyachi: – Qo'llarimizni yuqoriga ko'tarib, qanday tebratamiz?

Bolalar: – Shamol kabi.

Tarbiyachi: – Qo'llarimizni oldinga uzatib, qanday harakatlantiramiz?

Bolalar: – Yomg'ir yog'gandek.

Tarbiyachi: – O'tirgan holda barmoqlarimizni qanday sakratdik?

Bolalar: – Yomg'ir yerga tushgandek.

Tarbiyachi: – Qo'llarimizni o'ng va chap tomonga qanday tebratamiz?

Bolalar: – Suv oqayotgandek.

Tarbiyachi: – Qo'llarimizni yonga uzatib, qanday tebratamiz?

Bolalar: – Qushlar uchayotgandek.

Tarbiyachi: – Qo'limizda aylanani qanday chizamiz?

Bolalar: – Quyosh chiqqandek.

Tarbiyachi: – Qo'limizni yarim bukib, barmoqlarimizni ochib qanday sakraymiz?

Bolalar: – Gullar ochilgandek.

Tarbiyachi: – Bolajonlar, bular qaysi faslda sodir bo'ladi?

Bolalar: – Bahor faslida.

Tarbiyachi: – To'g'ri. Ayting-chi, bahor faslida tabiatda qanday o'zgarishlar bo'ladi?

Bolalar: – Bahor faslida tabiat uygʻonadi. Havo isiy boshlaydi. Qorlar eriydi, ariqlarda suvlar toʻlib oqadi. Maysalar unib chiqadi. Yer yumshaydi. Koʻchatlar ekiladi, daraxtlar gullaydi. Bahorda qaldirgʻoch, turnalar uchib keladi. Boychechaklar ochiladi.

Tarbiyachi: – Rahmat, bolajonlar, bahor faslidagi oʻzgarishlarni yaxshi bilib olibsiz. Endi biz sizlar bilan ikki guruhga boʻlinib olamiz. Buning uchun 2 ta bola oldimga kelsin va stol ustidagi hasharot oʻyinchoqlardan tanlab olsin.

Mana, guruhlar ham nomlandi:

1-guruh “Asalari”,

2-guruh “Kapalak”.

Tarbiyachi doskaga HASHAROT soʻzini yozadi.

Tarbiyachi: – HASHAROT soʻzida nechta tovush bor?

“Asalari” guruhi: – 7 ta tovush bor?

Tarbiyachi: – Hasharot soʻzi necha boʻgʻin?

“Kapalak” guruhi: – 3 ta boʻgʻin.

Tarbiyachi: – Nechta unli tovush bor?

“Asalari” guruhi: – 3 ta unli tovush bor.

Tarbiyachi: – Nechta undosh tovush bor?

“Kapalak” guruhi: – 4 ta undosh tovush bor.

Guruhlarga hasharotlar haqida 2 tadan topishmoq, 1 tadan maqol aytish vazifasi beriladi.

“Asalari” guruhi:

Ashulasi zuv-zuv, dutorlari gʻuv-gʻuv. (ari)

Oʻzi kichik hasharot, gʻashga tegadi bot-bot. (pashsha)

Chumoli iniga choʻp tiqma. (maqol)

“Kapalak” guruhi:

Ikki yaproq bir tanda, kezar yozda chamanda. (kapalak)

Oʻzi yoʻqdek –tovushi oʻqdek. (chigirtka)

Ari chaqdi deb arazlasa, boli bor. (maqol)

Topishmoqlar javobi xattaxtaga ilib qoʻyiladi.

Tarbiyachi: – Bolajonlar, navbatdagi shartimizda hasharotning ikkinchi qanotini chizishingiz talab etiladi.

“Asalari” guruhi



“Kapalak” guruhi

Tarbiyachi: – Bolalar, endi plastilindan hasharotlarni yasaysizlar.

“Asalari” guruhi kapalakni,



“Kapalak” guruhi esa asalarini yasaydi.



Асалари

Eslash, fikrlash qobiliyatini o‘stirish hamda mashg‘ulotni mustahkamlash uchun test savollari:

“Kapalak” guruhiga:

1. Vertolyot qaysi hasharotning uchishiga o‘xshaydi?

A) kapalak B) ninachi D) ari

2. Qaysi qush bahor elchisi?

A) bulbul B) qaldirg‘och D) musicha

“Asalari” guruhiga:

1. Eng mehnatkash hasharotni toping.

A) pashsha B) qo‘ng‘iz D) chumoli

2. Qaysi qush bahorda o‘lkamizdan uchib ketadi?

A) laylak B) burgut D) qarg‘a

Tarbiyachi: – Navbatdagi shartimi–sardorlar bellashuvi. Hasharotlarning nomlarini arifmetik misollarda yechamiz.

“Kapalak” guruhi sardoriga:

1. Chu + ... + ... = chumoli

2. ... + sha = pashsha

3. Ka + ... + lak = kapalak

“Asalari” guruhi sardoriga:

1. Chi + ... = chivin

2. ... + g‘iz = qo‘ng‘iz

3. ... + ari = asalari.

Sardorlar nomi hosil bo‘lgan hasharotlarni xattaxtaga ilib qo‘yadilar. Hakamlar baholarni e‘lon qilib, bolalarga sovg‘alar beradilar. Bu mashg‘ulotlar orqali bolaga yo‘naltirilgan

ta'lim oldiga qo'yilgan vazifalar amalga oshiriladi, ya'ni bolalarda bilim, ko'nikma, malaka hamda do'stona munosabatlar shakllantiriladi.

2-mavzu: Texnologiya tushunchasining mazmun, mohiyati va loyihalashtirishning tarixi (2 soat ma'ruza)

O'tgan yillarimizga nazar tashlab, ularni sarhisob qilsak, mustaqilligimiz sharofatini yanada chuqurroq anglaymiz. Biz ta'limda butunlay yangilanish, yangi jarayonga tom ma'noda o'tish va unga moslashish davrini boshimizdan kechirmoqdamiz. «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» bizga eski usullardan voz kechib ta'limning har bir qirrasigacha qayta qurish imkonini bergan bo'lsa, «2004-2009 yillarda Maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi» esa qo'lga kiritilgan imkoniyatlarni: takomillashgan davlat ta'lim standartlari, o'quv dasturlari, davlat talablari, yangi o'quv darsliklarini har tomonlama zamon talablariga mos jihozlangan maktablarda, zamonaviy o'quv xonalarida amaliyotga joriy etish imkoniyatlarini keng ochib berdi.

Yangilangan ta'limda o'quvchining yuragidagi cho'g'ni alanga oldirish, uni har tomonlama rivojlantirib, bilimdan-bilimga yetaklab olib chiqish uchun zamonaviy darslar zarurdir.

Hozirgi paytda pedagogika fanida pedagogik texnologiyalar, ta'lim texnologiyasi, o'qitish texnologiyasi iboralari tez-tez tilga olinmoqda. Bugungi kungacha pedagogik adabiyotlarda, ta'lim muammolariga oid ma'ruzalar, rasmiy hujjatlarda «yangi pedagogik texnologiya», «ilg'or pedagogik texnologiya», «zamonaviy ta'lim texnologiyasi» ga oid tushunchalari hali ham bir qolipga tushirilmagan, entsiklopediyalarda izohlanganicha yo'q, uning mazmunini yagona talqini ishlab chiqilmagan va shuning uchun iboraning bir-biridan farqlanuvchi ko'pgina ta'riflari mavjud.

Pedagogik texnologiya - shunday bilimlar sohasiki, ular vositasida uchinchi ming yillikda davlatning ta'lim sohasidagi siyosatida tub burilish yuz beradi, o'qituvchi faoliyati yangilanadi, o'quvchi va talaba yoshlarda hurfikrlilik, bilimga chanqoqlik, Vatanga mehr-muhabbat, isonparvarlik tuyg'ulari tizimi shakllantiriladi.

Ma'lumotlilik asosida yotuvchi bosh g'oya ham tabiat va inson uzviyligini anglab yetadigan avtoritar va soxta tafakkur yuritish usulidan voz kechgan, sabr-bardoshli, qanoatli, o'zgalar fikrini hurmatlaydigan, milliy-madaniy va umuminsoniy qadriyatlar kabi shaxsiy sifatlarni shakllantirishni ko'zda tutgan insonparvarlik hisoblanadi. Bu masalaning yechimi qaysidir darajada ta'limni texnologiyalashtirish bilan bog'liqdir.

Dastlab "**texnologiya**" tushunchasiga aniqlik kiritaylik. Bu so'z texnikaviy taraqqiyot bilan bog'liq holda fanga 1872-yilda kirib keldi va yunoncha ikki so'zdan - "**texnos**" (techne) - **san'at, mahorat, hunar** va "**logos**" (logos) - **fanso'zlaridan** tashkil topib "**hunar fani**" ma'nosini anglatadi. Biroq, bu ifoda ham, zamonaviy texnologik jarayonni to'liq tavsiflab berolmaydi. Texnologik jarayon, har doim zaruriy vositalar va sharoitlardan foydalangan holda, operatsiyalarning muayyan ketma-ketlikda bajarilishni ko'zda tutadi. Aniqroq aytadigan bo'lsak, texnologik jarayon - bu mehnat qurollari bilan mehnat ob'ektlari (xom ashyo)ga bosqichma-bosqich ta'sir etish natijasida mahsulot

yaratish borasidagi ishchi (ishchi mashina)ning faoliyatidir. Ana shu ta'rifni tadqiqot mavzusiga o'giradigan bo'lsak, ya'ni: **Pedagogik texnologiya** - bu o'qituvchi (tarbiyachi)ning ta'lim-tarbiya vositalari yordamida o'quvchi (talaba)larga muayyan sharoitda ta'sir ko'rsatishi va bu faoliyat mahsuli sifatida **ularda oldindan belgilangan shaxsiy sifatlarni shakllantirish jarayonidir**.

Yuqorida keltirilgan ta'rifdan ko'rinib turibdiki, pedagogik texnologiya tushunchasini izohlashda **texnologiya** jarayoni asos qilib olindi. Aslini olganda ham, bu tushunchaga berilgan ta'riflar pedagogik adabiyotlarda nihoyatda ko'pdir. Pedagogik adabiyotlarda "texnologiya" atamasining xilma-xil ko'rinishlarini uchratish mumkin: "**o'qitish texnologiyasi**", "**ta'limli texnologiya**", "**ma'lumot texnologiyasi**", "**o'quv jarayoni texnologiyasi**" va hokazo. O'qitish texnologiyasi pedagogik texnologiyaga yaqin tushuncha bo'lsa-da, aynan o'xshash ma'noni anglatmaydi, chunki u ma'lum predmet, mavzu va savollar doirasidagi aniq o'quv materialini o'zlashtirish yo'lini muayyan texnologiya atrofida ifoda etadi. U ko'proq xususiy metodika bilan bir qatorda turadi.

Pedagogik texnologiya esa **ma'lumot texnologiyasini** joriy etish taktikasini ifodalaydi va "o'qituvchi - pedagogik jarayon o'quvchi (talaba)" funksional tizim qonuniyatlariga tegishli bilimlar asosida quriladi.

Alohida qayt etib o'tish joizki, ayni vaqtda ta'lim texnologiyasi tushunchasini mantiqiy-g'oyaviy jihatdan izohlash borasida yagona fikr mavjud emas. Pedagogik adabiyotlarda 300 dan ortiq ta'riflar berilgan.

Yuqorida qayd etilganidek, pedagogik texnologiya nazariyasi o'tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlab asoslanib kelinayotgan bo'lsa-da, aynan "pedagogik texnologiya" tushunchasiga nisbatan turlicha yondashuvlar mavjud. Xususan pedagog olim V.P.Bespalko pedagogik texnologiyani "amaliyotga tatbiq qilinadigan muayyan pedagogik tizim loyihasi" deya ta'riflaydi hamda asosiy diqqatni o'quv-pedagogik jarayonni oldindan loyihalashga qaratadi. N.F.Talzina esa pedagogik texnologiyaning "fan va amaliyot oralig'ida muayyan tamoyillarni olg'a suruvchi metodlar ishlab chiqaruvchi, ularni izchil qo'llash kabi masalalarni hal etishga yo'naltirilgan mustaqil fan" bo'lishi lozimligini qayd etadi va hokazo.

Pedagogik texnologiyaning ta'riflari.

Hozirgi ta'lim-tarbiya sohasida keng rivojlanib borayotgan yo'nalishlardan biri zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llashdan iborat. Ma'lumki, ta'lim-tarbiya jarayoni katta avlod tomonidan o'z bilim va tajribalarini o'sib kelayotgan avlodga o'rgatishdan iborat bo'lib, bu jarayonda asosan inson hayoti uchun zarur axborotlarni avloddan avlodga uzatish amalga oshiriladi.

Pedagogik texnologiyaning har turli ta'riflari mavjud bo'lib, har bir ta'rif ma'lum nuqtai nazardan yondashishni ifodalaydi. Ayrim asosiy ta'riflar va ularning sharxlarini ko'rib chiqamiz.

Pedagogik texnologiya-barkamol insonni shakllantirish faoliyati.

Texnologiya – biror ishda, mahoratda, san’atda qo’llaniladigan usullar, yo’llar yig’indisi (Izohli lug’at).

Texnologiya – ishlov berish, ahvolni o’zgartirish san’ati, mahorati, qobiliyati, metodlar yig’indisi (V.M.SHepel).

Pedagogik texnologiya – o’qitishning, ta’limning shakllari, metodlari, usullari, yo’llari, tarbiyaviy vositalarning maxsus yig’indisi va komponovkasi (joylashuvi)ni belgilovchi psixologik tartiblar (ustanovka)lar majmuasi: u pedagogik jarayonning tashkiliy-uslubiy vositalaridan iborat (B.T.Lixachev).

Pedagogik texnologiya-o’qituvchi mahoratiga bog’liq bo’lmagan xolda pedagogik muvaffaqiyatni kafolatlay oladigan o’quvchi shaxsini shakllantirish jarayonining loyihasidir (V.B.Bespal’ko).

Pedagogik texnologiya-ta’limning rejalashtiriladigan natijalariga erishish jarayoni tafsiloti (I.P.Volkov)

Pedagogik texnologiya-o’quv jarayonining o’quvchilar va o’qituvchi uchun so’zsiz qulay sharoitlar ta’minlashni loyihalash, tashkil qilish va o’tkazish bo’yicha hamma detallari o’ylab chiqilgan birgalikdagi pedagogik faoliyat modeli (V.M.Monaxov).

Pedagogik texnologiya-texnika resurslari, odamlar va ularning o’zaro ta’sirini hisobga olgan holda ta’lim shakllarini optimallashtirish vazifasini qo’yuvchi o’qitish va bilimlarni o’zlashtirishning xamma jarayonlarini yaratish, qo’llash va aniqlashning tizimli metodi (YuNESKO).

Pedagogik texnologiya-bu o’qitishga o’ziga xos yangicha (innovatsion) yondoshuvdir. U pedagogikadagi ijtimoiy-muhandislik tafakkurining ifodalashi, texnokatik ilmiy ongning pedagogika sohasiga ko’chirilgan tasviri, ta’lim jarayoning muayyan standartlashuvi hisoblanadi (B.L.Farberman).

O’qituvchining o’qitish (tarbiya) vositalari yordamida o’quvchilarga muayyan sharoit va izchillikda ta’sir ko’rsatish hamda mazkur faoliyatning mahsuli sifatida ularda oldindan belgilangan sifatlarni shakllantirish jarayoni (N.Saidahmedov).

Yuqorida keltirilgan ayrim ta’riflarning o’zaro har xilligidan ko’rinadiki, pedagogik texnologiya tushunchasi ko’p qirrali bo’lib, unga pedagogik, [psixologik](#), didaktik, tashkiliy, iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik va boshqa nuqtai nazarlardan yondashish mumkin.

Pedagogik texnologiya-axborotlarni o’zlashtirish, ulardan amalda foydalanish, ulardagi yangi ma’no-mazmunlarni hamda axborotlar orasidagi turli bog’liqliklarni ochish orqali yangi axborotlar yaratishga o’rgatish jarayonidan iborat.

Pedagogik texnologiya-ta'lim metodlari, usullari, yo'llari hamda tarbiyaviy vositalar yig'indisi: u pedagogik jarayonning tashkiliy-uslubiy vositalari majmuidir.

Pedagogik texnologiya-ma'lumotlarni o'zlashtirish uchun qulay shakl va usulda uzatish va o'zlashtirish jarayonidan iborat.

Demak, pedagogik texnologiya-insonga (ta'lim-tarbiya oluvchiga) oldindan belgilangan maqsad bo'yicha ta'sir o'tkazish faoliyatidan iborat.

Pedagogik texnologiya o'quvchini mustaqil o'qishga, bilim olishga, fikrlashga o'rgatishni kafolatlaydigan jarayondir.

Xulosa. Pedagogik texnologiya jarayonida o'qituvchi rahbarligida o'quvchi mustaqil ravishda bilim oladi, o'rganadi, o'zlashtiradi.

Bu faoliyatni amalga oshirish uni tashkil qilish, olib borish, takomillashtirish, tahlil qilish, tadqiq qilish, qiyoslash, [umumlashtirish](#), [xulosa chiqarish](#), boshqarish, nazorat, baholash kabi jarayonlarni o'z ichiga oladi.

Pedagogik texnologiyaning rivojlanish tarixi.

Pedagogika fani tarixidan ko'rinib turibdiki o'qitish va kadrlar tayyorlashning yanada mukammal metodlarini va usullarini izlash doimiy davom etib kelgan.

O'qitish - bu jamiyat taraqqiyoti uchun samarali pedagogning faoliyati yakunlanishi bilan darhol ko'rinmasa ham har qanday boshqa faoliyat kabi ishlab chiqarish faoliyatidir.

Jamiyat tarixida iqtisodiy davrlar faqatgina nimalar ishlab chiqarilishi, kim tomonidan qancha ishlab chiqarilishi, mehnatning qaysi vositalari bilan ishlab chiqarilishiga qarab farq qilmaydi.

Ana shu nuqtai nazardan biz ijtimoiy tarixda mavjud bo'lgan "pedagogik rivojlanish davr" larni ko'rib chiqamiz.

I. **Individual** pedagog, qo'l bilan ishlaydigan pedagogning pedagogik faoliyati davri (qadimgi davrlardan boshlab XVII asrgacha);

II. **Yozuv kitobi** davri (XVII asrdan hozirgi davrgacha);

III. **Audiovizual** vositalar davri (XX asrning 50 yillari);

IV. **O'qitishni boshqarishni avtomatlashtirish** oddiy vositalari davri (XX asrning 70 yillari);

V. **Zamonaviy hisoblash mashinalari** asosida ta'limni boshqarishni avtomatlashtirishda adaptiv vositalar davri (XX asr oxiri komp'yuterda o'qitish).

Dastlab XX asrning 20 yillarida “Pedagogik texnologiya” termini birinchi bor pedagogika bo'yicha asrlarda tilga olingan. Shu vaqtning o'zida yana bir boshqa – “pedagogik texnika” termini ham tarqaldi. U pedagogik entsiklopediyada 30 yillarda o'quv mashg'ulotlarini aniq va samarali tashkil etishga qaratilgan uslublar va vositalar sifatida ifodalangan.

Bu tushuncha 1940 yillardan 50-yillar o'rtasigacha “ta'lim texnologiyasi” deb qo'llanilib, o'quv jarayonida **audiovizual texnika vositalaridan foydalanishni** ifoda qilgan.

60- yillar o'rtalarida bu tushunchaning mazmuni chet ellarda pedagogik nashrlarda va xalqaro konferensiyalarda keng muhokama etildi, natijada ushbu sohada turli mamlakatlarda (AQSH, Angliya, Yaponiya, Frantsiya, Italiya, Vengriya) uni talqin qilishning ikki yo'nalishi belgilandi.

Birinchi yo'nalish tarafdorlari texnik vositalar va dasturlashtirilgan o'qitish vositalarini qo'llash zarurligini ta'kidladilar.

Ikkinchi yo'nalish tarafdorlari esa o'quv jarayonini tashkil etish samaradorligini oshirish va pedagogik g'oyalarni texnikaning keskin rivojlanishidan ortda qolishini yo'qotishni muhim deb hisobladilar. Shunday qilib **1-yo'nalish “o'qitishda texnik vositalar”** sifatida belgilandi, **2-yo'nalish “o'qitish texnologiyasi”** yoki **“o'quv jarayoni texnologiyasi”** sifatida belgilandi.

70-yillarning boshlarida turli xildagi uskunalarini va o'quv vositalarini modernizatsiyalashtirish zarurligi anglab yetildi. Bularsiz o'qitishning sifatligi va samaradorligiga erishib bo'lmas edi. Keyinchalik bu muammo bilan ixtisoslashtirilgan tashkilotlar va markazlar shug'ullana boshladi.

AQSHda 1971 yil – “Pedagogik kommunikatsiyalar va texnologiyalar bo'yicha AQSH Assotsiatsiyasi ” tuzildi. Hozirgi kunda mamlakat bo'ylab va Kanadada bu kengashning 50 ta filiallari ish olib bormoqda. AQSHda 1961 yilda “Pedagogik texnologiya” jurnali (Educational Technology), 1971 yilda esa – “Audiovizual o'qitish” jurnali nashr etila boshlandi.

Angliyada 1967 yil – Pedagogik texnologiya bo'yicha Milliy kengash, 1964 yildan boshlab “Pedagogik texnologiya va o'qitishni dasturlashtirish” jurnalini, 1971 yilda “Pedagogik texnologiya” jurnalini nashr eta boshladi.

Yaponiyada - Pedagogik texnologiyalar muammolari bilan 4 ta ilmiy tashkilotlar shug'ullanadi. 1967 yilda “Pedagogik texnologiyalar bo'yicha Milliy kengash” **tashkil etildi**, uning filiallari 22 ta davlat universitetlarida joylashtirilgan. 1965 yildan boshlab Yapon tilida har uch oyda “Pedagogik texnologiya” jurnali va ingliz tilida yiliga ikki marta “Pedagogik texnologiyalar sohasida tadqiqotlar” jurnali nashr etildi. Yaqinda “Pedagogik texnologiyalar bo'yicha umumyapon Markaziy kengashi” tashkil etildi, u muammolar bo'yicha xalqaro aloqalar o'rnatish bilan ham shug'ullanadi.

Italiyada – 1971 yili pedagogik texnologiyalar bo'yicha Milliy markaz tashkil etildi va "Pedagogik texnologiyalar" jurnali nashr etiladi.

Vengriyada – 1973 yili o'qitish texnologiyasi Davlat Markazi tashkil etildi.

O'qitish texnologiyasi bo'yicha Xalqaro seminarda (Budapesht, 1977) olim S.G.Shapovalenko o'qitish jarayonining uchta texnologik printsiplarini ko'rsatdi:

1. Bilim va texnikani mukammal egallash.
2. Audiovizual materiallari fondi bilan tanishish.
3. Ulardan samarali foydalanish metodikasini bilish, shu jumladan ijodiy yondashishi rivojlanishi ham.

Vengriya olimi L.Salai "o'qitish texnologiyasi" tushunchasiga rejalashtirish, maqsadlarni tahlil qilish, o'quv tarbiyaviy ishlar jarayonini ilmiy tashkil etish, samaradorligini oshirish maqsadida eng muhim vosita va materiallarni tanlashni kiritib o'qitish jarayonini tashkil etuvchilarni doirasini ancha kengaytirdi.

XX asrning 80-yillarida zamonaviy pedagogik jarayonni, pedagogik texnologiyaning mohiyatini yanada chuqurroq anglab yetishga urinishlar davom etdi.

Rossiya XX asrning 90- yillarida pedagogik texnologiyalar bo'yicha Markaz tashkil etildi, "Maktab texnologiyasi", "Ta'limda innovatsiyalar" jurnallari nashr etiladi.

O'zbekistonda 1997 yili kadrlar tayyorlash Milliy dasturi qabul qilingandan boshlab ta'lim tizimida, pedagogik nashrlarda pedagogik texnologiyalar muammolari dolzarb tadqiqotchilik ob'ektlari sifatida ko'tarila boshlandi.

1999 yilda Respublika ta'lim Markazi qoshida pedagogik texnologiyalar bo'yicha Markaz tashkil etildi. "Ta'lim texnologiyalari", "Ta'lim muammolari" kabi jurnallar nashr etila boshlandi, pedagogik texnologiyalar muammolari bo'yicha maqolalar "Xalq ta'limi", "Pedagogik ta'lim", "Ta'lim va tarbiya" jurnallarida, "Ma'rifat", "O'qituvchilar gazetasi" va boshqa ilmiy-pedagogik nashrlarda bosilib chiqarilmoqda.

1994 yili pedagogik texnologiyalar muammolari bo'yicha 1-Respublika ilmiy-nazariy konferensiyasi o'tkazildi, ma'ruzalar va hisobotlar materiallari maxsus to'plamda chop etildi.

Pedagog olimlar U.Nishonaliev, N.S.Saidahmedov, N.N.Azizxodjaeva, Ziyomammedov, O'.Tolipov, B.L.Faberman va boshqalar Respublikada pedagogik texnologiyalar muammolari bo'yicha jiddiy tadqiqotlar olib bormoqdalar.

2000 yilda, Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika universiteti qoshida pedagogika fanlari doktori, professor N.N.Azizxodjaeva rahbarligi ostida innovatsion

texnologiyalar Markazi tashkil etildi, bu markaz zamonaviy pedagogik va innovatsion texnologiyalar muammolari bo'yicha pedagogik kadrlar malakasini oshirish bilan shug'ullanadi.

3-Mavzu. Ta'lim jarayonini tashkil etishga nisbatan texnologik yondashuv va loyihalashtirish jarayonlarining bosqichlari, tuzilishi, funksiyalari.

O'quv-tarbiya jarayonida bilim berishning zamonaviy pedagogik texnologiyalaridan keng foydalanish, ularni doimiy ravishda takomillashtirib borish, rivojlangan davlatlar ta'lim tajribalaridan maqsadli foydalanish – ta'limning sifati va samaradorligini kafolatlaydi. Zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan fan, mavzu va uning mazmunida o'rinli foydalanish ta'lim oluvchilarning qiziqishlarini orttiradi, bilish faoliyatini yuqori darajada bo'lishga imkon yaratadi. Ta'limni rivojlantirishda pedagogik jamoa va o'qituvchilarning innovatsion faoliyatini shakllantirish – ularda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish malakasining talab darajasida bo'lishi, mazmunan boyitishni ta'minlaydi. Xususan, ta'lim tizimining boshlang'ich sinflarida o'qitish jarayoni texnik vositalar, innovatsion va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni mukammal o'rganish, ta'lim jarayoniga moslashtirish – bugungi kun talabidir. Bu esa o'quvchilarni fanga bo'lgan qiziqishini yanada orttiradi, shuningdek o'rgatishda kam kuch, kam vaqt sarflab, o'qitish vositalaridan samarali foydalanishga yo'l ochadi. Ma'lumki, an'anaviy o'qitish tizimida o'qituvchi o'quvchiga asosan axborot beruvchi manba hisoblanadi, ya'ni bilim olishda: axborotlarni uzatish va qayta ishlanmagan holatda o'quvchidan qabul qilib olish kuzatilgan. Ya'ni dars jarayonida olingan bilim faollashuv pog'onasiga ko'tarilmagan. Zamonaviy o'qitish sharoitida esa kafolatlangan o'quv maqsadlariga erishish jarayoni oldindan loyihalashtiriladi va amalga oshiriladi. Texnologik yondashuv yuzakilikka emas, balki rejalashtirilgan natijani amalga oshirish imkonini beruvchi konstruktiv, ko'rsatmali sxemada o'z ifodasini topadi. Umuman olganda boshlang'ich sinflarda o'qitish jarayoniga texnologik yondashuv avvalo fanlararo integratsiyani ta'minlash, bolalarni ortiqcha qiyinchiliklardan ozod etish, vaqtdan unumli foydalanish, sinfda va sinfdan tashqari vaqtlarda bolalar orasida tashabbuskorlik muhitini yuzaga keltirish, erkin fikrlash, ijodiy izlanish tizimini yaratish kabi qator ishlarni amalga oshirishdan iboratdir. Bu borada albatta o'qituvchining mahorati, kreativ yondashuvi, kompetensiyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotchilarning fikriga ko'ra bunga to'rt yo'l bilan erishiladi: umumiy maqsaddan aniq maqsadlarni ajratib olish; muntazam izlanish, o'z faoliyatini tahlil qilish, qiyoslash va faoliyatni tanqidiy baholash; ilg'or ish tajribalarni o'rganish, o'z sharoiti va imkoniyatidan kelib chiqib, ularni amaliyotga tatbiq etish va takomillashtirib borish; xorijiy pedagogik tajribalarni ijodiy o'rganish; olingan bilim, ko'nikma va malakalarni amaliyotda keng tadqiq etish. Bugungi kunda amalga oshirayotgan islohotlarning markazida o'quvchini ta'lim jarayonining sub'ekti – faol ishtirokchiga aylantirish yotadi. Bunga albatta o'quv-tarbiya jarayoniga texnologik yondashuv asosida erishiladi. Texnologik yondashuvning ustuvor jihatlari quyidagilardan iborat: o'quvchilarning fikrlash jarayonida turli fikrlar va ilg'or g'oyalar paydo bo'ladi. Rang-baranglik fikr va g'oyalar yakkayu-yagona javob mavjudligi haqidagi tasavvur bartaraf qilingan chog'dagina yuzaga keladi; o'quvchining fikrlash jarayonini qadrlanishi. Bunda o'quvchilar o'z tengdoshlarining fikrlarini ham hurmat qilmog'i lozim; erkin fikrlilik tavakkalchilikka asoslanish. O'qitish jarayonida

qo'rqmay tavakkal qiluvchi o'quvchilarni rag'batlantirib turilishi; o'quvchilar o'rtasida hamkorlikni talab qiladigan mashg'ulotlardan foydalanish; biror masalada fikr almashishlaridan oldin vaqt va imkoniyat berilishi; belgilangan vazifa va topshiriqlarni bajarish jarayonida bir-birlariga yordam berishlariga sharoit yaratilishi va hokazo. Xulosa sifatida aytish joizki, jamiyatning yangi ijtimoiy kuchlarini yetishtirishda o'qituvchi mas'ul hisoblanadi. Jamiyat o'qituvchining qo'liga yosh avlodni, ya'ni o'z kelajagini ishonib topshiradi. Uning kamol topishida o'qituvchining dunyoqarashi, zamonaviy bilimlari va yondashuvlari muhim omillardan sanaladi.

Aqliy hujum. Maktabgacha ta'limda qanday pedagogik texnologiyalar qo'llanilayapti?

Hozirgi kunda maktabgacha ta'limda M.Montessori sistemasi va IMEN texnologiya deb tan olingandir. Bu pedagogik texnologiyalar bilan bir qatorda hozirgi kunda bolani qo'llab-quvvatlash texnologiyalari – bola shaxsiga yo'naltirilgan ta'lim, o'yinli texnologiyalar, ta'limning individuallashtirish texnologiyasi, interfaol ta'lim (bolalarni har tomonlama faollashtiruvchi usullar), muammoli ta'lim, loyihali ta'lim texnologiyalari maktabgacha ta'lim jarayoniga kirib kelmoqda.

Bu pedagogik texnologiyalardan foydalanishda bolalar yoshiga, ularning individual xususiyatlariga alohida e'tibor beriladi. Masalan, bolani qo'llab-quvvatlash texnologiyalari.

"Bolani qo'llab-quvvatlash" deganda nimani tushunasiz? Bolani qo'llab-quvvatlash texnologiyasi har bir ta'lim oluvchining individual xususiyatlariga mos keluvchi usullar va vositalarni izlab topishga harakat qilishdir. Buning uchun psixodiagnostika usullaridan foydalaniladi, bolalar faoliyatini turlicha tashkillaydilar, har xil o'qitish vositalarini qo'llaydilar, ta'lim mazmuniga o'zgartirishlar kiritadilar. Shaxsni qo'llash texnologiyalari o'zini eng to'la ifodasini chet elda gumanistik psixologiya yo'nalishidagi izlanishlarda topgan. K.Rodgers agar pedagog quyidagilarni qo'llasa, u guruhda shaxsni individual rivojlanishi uchun kerakli muhitni yarata oladi deb ta'kidlaydi:

- pedagog butun ta'lim jarayonida bolalarga bo'lgan ishonchini namoyish etib borishi zarur;
- pedagog guruh va shaxsan har bir tarbiyalanuvchi oldida turgan maqsad va vazifalarni aniqlashga yordam berishi kerak;
- ta'lim jarayonini tashkillashda pedagog bolani ichki motivatsiyasidan kelib chiqishi kerak;
- pedagog bolalar uchun turli —tuman tajriba manbasi bo'lib, bolalar keragicha unga murojaat qilishi nazarda tutiladi;
- bu sifatda u hamma bolaga bir xil yondashishi kerak;

- pedagog guruhdagi emotsional muhitni his etib va qabul qilish malakasini oshirib borishi lozim;
- pedagog guruhdagi o'zaro fikr almashinuvini faol ishtirokchisi bo'lishi kerak;
- u o'z hissiyotlarini ochiq namoyish etadi.
- pedagog o'z — o'zini va o'z imkoniyatlarini yaxshi bilishi kerak;

«BBB» usuli. O'tilgan mavzuni mustahkamlash.

«FSMU» usuli. O'tilgan mavzuni umumlashtirish.

Pedagogik texnologiyalarni mukammal bilishimiz va ulardan amaliyotda maromiga yetkazib qo'llay olishimiz juda muhim.

Masalan, bolalar individual psixologik xususiyatlariga ko'ra har xil bo'ladi, lekin ta'lim-tarbiya bitta dastur asosida olib boriladi, bitta dastur [asosida olib borilar ekan deb](#), hamma boladan bir xil natijani talab qilishimiz to'g'ri emas, qaysidir bola ba'zi narsalarni oldinroq o'rgansa, ba'zilari keyinroq o'rganadi, kimdir amaliy bajarib tez o'rgansa, kimdir boshqaning bajarganini ko'rib tez o'rganib oladi. Shu sababli bolalar bilan ishlayotganimizda ularga individual tarzda munosabatda bo'lishimiz, har bir bolaning yutug'ini ko'ra olishimiz va rag'batlantirishimiz, ularning yanada kuchli ishtiyoq bilan o'z ustida ishlashiga turtki bo'ladi.

Pedagogik texnologiya tushunchasi, uning ta'riflari va metodikadan farqi
Pedagogik texnologiyalarning turlari

Bilardim	Bildim	Bilmoqchiman

Pedagogik texnologiyalarda didaktik o'yinlar texnologiyalari bolalar faoliyatini faollashtirish va jadallashtirishga asoslangan. Ular bolalar shaxsidagi ijodiy imkoniyatlarni ro'yobga chiqarish va rivojlantirishning amaliy yechimlarini aniqlash va amalga oshirishda katta ahamiyatga ega. Didaktik o'yinlarning asosiy turlari: intellektual (aqliy) va harakatli hamda aralash o'yinlardan iborat. Bu o'yinlar ishtiroklarida aqliy, jismoniy, axloqiy, psixologik, estetik, badiy, tadbirkorlik, mehnat va boshqa ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi.

Ta'lim-tarbiya jarayonida asosan bolalarda ta'lim olish motivlarini, ularning turli yo'nalishdagi qobiliyat va qiziqishlarini oshiradigan, biror kasbga moyilliklarini ko'rsatadigan didaktik o'yinlardan foydalaniladi. Didaktik o'yinlar nazariy, amaliy,

jismoniy, rolli, ishchanlik va boshqa yo'nalishlar bo'yicha turlarga ajratiladi. Hozirda kompyuter vositasidagi didaktik o'yinlar alohida o'ringa ega bo'lib bormoqda.

Didaktik o'yinlar o'quvchilarda tahlil qilish, mantiqiy fikrlash, tadqiq qilish, hisoblash, o'lchash, yasash, sinash, kuzatish, solishtirish, xulosa chiqarish, mustaqil qaror qabul qilish, guruh yoki jamoa tarkibida ishlash, axloq-odob o'rgatish, nutq o'stirish, til o'rgatish, yangi bilimlar o'rgatish va boshqa faoliyat turlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan o'yinlarga ajratiladi.

Didaktik o'yinlardan amalda foydalanish orqali boshqa usullar yordamida erishish qiyin bo'lgan ta'lim-tarbiyaviy maqsadlarni amalga oshirish ko'zda tutiladi. Turli o'quv fanlariga oid didaktik o'yinlar mavjud bo'lib, ular shu fanlarni sifatli o'rgatish maqsadlariga xizmat qiladi.

Umumiy o'yinlar nazariyasiga ko'ra, mavjud barcha o'yin turlarini tasniflashda ularni funktsional, mavzuli, konstruktiv, didaktik, sport va harbiy o'yinlarga ajratiladi. Bularning orasida didaktik o'yinlar ta'lim-tarbiya vazifalarini amalga oshirish imkoniyatini berishi bilan alohida o'ringa ega. O'yinlar maktabgacha yoshdagi bolalarning asosiy faoliyat shakli hisoblanadi. Bu esa pedagog va psixolog olimlar tomonidan shu yosh davridagi o'yinlarning ta'lim-tarbiyaviy ahamiyatini o'rganish va yanada oshirish bo'yicha tadqiqotlar olib borilishiga asos bo'ldi.

Natijada, oldingi asrning 60-yillari boshidan AQShda so'ngra boshqa g'arb mamlakatlarida ishchanlik o'yinlari qo'llanila boshlandi. Ishchanlik o'yinlari tadqiqotchilari bu usulni eng asosiy, samarali va tejimli ta'lim metodlaridan iborat deb ta'kidlaganlar.

Didaktik o'yinlarning yana bir turi-aqliy hujum usulini birinchi marta 1939 yilda A.F.Osborn qo'llagan. Bu usulni g'oyalar banki deb ham nomlangan. U muammolarni qo'yidagicha yechishga asoslanadi;

-muammoli vaziyat yaratish;

-g'oyalarni shakllantirish;

-eng yaxshi g'oyalarni tekshirish, baholash va tanlash.

Guruh ishtirokchilariga muammoni aniqlash va uni echish bo'yicha iloji boricha ko'p, ba'zan, batamom kutilmagan g'oyalarni berish uchun eng qulay sharoit yaratilishi aqliy hujum mashg'uloti samaradorligini belgilaydi. Bunda pedagogning mahorati hamda o'quvchilarning belgilaydi. Bunda pedagogning mahorati hamda o'quvchilarning tayyorgarliklari qanchalik yuqori ekanligi asosiy omil hisoblanadi.

Didaktik o'yin texnologiyalari amalga oshiriladigan ayrim noana'naviy mashg'ulot shakllari:

Ishchanlik o'yini darsi- mashg'ulot mavzusi bo'yicha masalalarni hal etish jarayonida bolalarning faol ishtirok etishini ta'minlash orqali yangi bilimlarni o'zlashtirish mashqi.

Rolli o'yin mashg'uloti - mashg'ulot mavzusi bo'yicha masalalarni o'rganishda bolalarga oldindan ma'lum rollarni taqsimlash va mashg'ulot jarayonida shu rolni bajarishlarini tashkil etish asosida bilimlarni mustahkamlash darsi.

Teatrlashtirilgan mashg'ulot – mashg'ulot mavzusi bilan bog'liq sahna ko'rinishlari tashkil etish orqali mashg'ulot mavzusi bo'yicha chuqur, aniq ma'lumotlar berish darsi.

Kompyuter mashg'uloti - tegishli mashg'ulot turi bo'yicha mashg'ulot mavzusiga doir kompyuter materiallari (multimedia, virtual o'quv kursi va shu kabilar) asosida o'tiladigan dars.

Yarmarka mashg'uloti – mashg'ulot mavzusini bo'laklar bo'yicha oldindan o'zlashtirgan bolalarning o'zaro muloqot asosida guruhga qiziqarli tushuntirish orqali mashg'ulot.

Integral (integratsiyalashgan) mashg'ulot - bir nechta mashg'ulot turlariga doir va integratsiyalash uchun qulay bo'lgan mavzular bo'yicha tashkil qilingan mashg'ulot bo'lib, bolalarning turli mashg'ulot turlarga qiziqishlarini orttirib, ta'lim jarayonidagi faolliklarini ta'minlaydi.

«Mo'jizalar maydoni» mashg'uloti - bolalar bilan o'tkaziladigan qiziqarli o'yin bo'lib, turli savollarga belgilangan vaqt davomida to'g'ri javoblar topish va g'oliblarni rag'batlantirish orqali bolalarda fikrlash, topqirlik, ziyraklik va bilimlarini kengaytirib borish sifatlarini shakllantiradi.

Didaktik uyinlarini tanlashda ishtirokchilarning yoshi, bilimi va tarbiyalanganlik darajasi hisobga olinadi. Har bir didaktik uyin mashg'ulotlariga o'ziga xos xavfsizlik talablari qo'yiladi. bu xavfsizlik talablariga to'liq rioya qilinishi har bir tashkilotchining doimiy e'tiborida bo'lishi lozim. Bundan tashqari har bir didaktik uyin uchun sarflanadigan vaqt miqdorini to'g'ri belgilash va unga rioya qilishning o'ziga xos asoslarini bilish va mashg'ulotning maqsadiga muvofiq qo'llash talab qilinadi. Didaktik uyin turlarini tanlash mezonlari:

-ishtirokchilar tarkibi bo'yicha-o'g'il bolalar, qiz bolalar, o'smirlar, katta yoshdagilar uchun o'yinlar;

-ishtirokchilar tarkibi bo'yicha-yakka, juftlikda, **kichik guruh**, katta guruh, guruh jamoasi, raqobatdosh komandalar va ommaviy o'yinlar

-vaqt me'yori bo'yicha-mashg'ulot, mashg'ulot vaqtining reja bo'yicha ajratilgan qismi, o'yin maqsadiga erishguncha, g'oliblar aniqlanguncha davom etadigan va boshqa o'yinlar.

Har bir didaktik o'yin jarayonida o'ziga xos vositalar turlari qo'llaniladi va mashg'ulot jarayonida ulardan to'g'ri, unumli va xavfsiz foydalanish lozim. Bu vositalarni qo'yidagi turlarga ajratish mumkin

-kontselyariya tovarlari-turli o'lchamlardagi oq va rangli qog'ozlar, skotch, ruchka, qalam, chizg'ich, elim va boshqalar.

-texnika,-proektor, mikrofon, kompyuter, televizor;

Maktabgacha ta'limda har bir bola ayrim turdagi didaktik o'yin mashg'uloti o'quv materiallarini amalda qo'llash uchun tayyorlashini tashkil qilish metodik faoliyatining ajralmas qismi hisoblanadi. Bunda bolalar o'z mashg'ulot turlari bo'yicha o'zlari tanlagan mavzudagi mashg'ulotni eng maqsadga muvofiq didaktik o'yin turlaridan foydalanib o'tkazish yuzasidan dars ishlanmasini tayyorlashlari va uning asosida metod birlashma majlisida shu mashg'ulotni bayon qilib berishlari va tegishli muhokamalar o'tkazib borishlari tavsiya qilinadi.

“Doira atrofida”

Boshlovchi bolalarni atrofiga chorlaydi. “Kelinglar bolalar doira bo'lib o'tiramiz. Hammamiz bir-birimizga qarab o'tirishimiz nihoyatda yaxshi to'g'rimi? Endi hammamiz navbat bilan gapirmasdan, jilmayib, bir-birimiz bilan bosh qimirlatib ko'zimiz yordamida salomlashib chiqamiz.”

“Men va boshqalar”

Bu o'yinda guruh doira shaklida o'tiradi va har bir ishtirokchi o'z ismining bosh harfiga bitta ijobiy sifat tuzadi. Masalan: birinchi ishtirokchi o'z ismi va sifatni aytadi – Gulnoza go'zal; 2-ishtirokchi o'zidan oldingi va o'zining ismi va sifatini aytadi – Gulnoza go'zal; Malika muloyim, 3-ishtirokchi o'zidan oldingilarning va o'zining ismi va sifatini aytadi – Gulnoza go'zal, Malika muloyim, Maftuna maftunkor. O'yin shu tariqa davom etadi va oxirgi ishtirokchi hammanikini aytib so'ng o'zinikini aytadi.

Agarda ishtirokchisifatni topishda qiynalsa, tarbiyachi bolalardan yordam berishini taklif etadi. Bu trening xotirani mustahkamlaydi, guruhdagi psixologik muhitni to'g'ri yo'lga qo'yishga yordam beradi. Bolalarning lug'ati ijobiy so'zlar bilan boyidi.

Eslatma: bu o'yin davomida bolalarning soni 10 tadan oshmasligi lozim.

“Klaster” o'yini

Maqsad: Klaster usulida transport turlarini guruhlash, ba'zi belgilariga **qarab umumlashtira olish**, e'tiborli bo'lish.

Kerakli jihozlar: Turli transportlarning alohida – alohida rasmlar.

O'yinning borishi: Bolalarga turli xildagi transportlarning alohida-alohida rasmlari to'plami beriladi. Bolalar transportlarni qaerda harakat qilishlariga qarab guruhlab chiqadilar – erda yuradigan, osmonda uchadigan, suvda suzadigan.

“Nimaning bolasi?” o'yini

Maqsad: bolalarni hayvonot olami bilan yaqindan tanishtirish, ularning so'z boyligini oshirish.

Kerakli jihozlar: Ot, toychoq, echki, uloqcha, qo'y, qo'zichoq, mushuk, mushukcha, tuya, bo'taloq.

O'yinning borishi:

Tarbiyachi: Bolajonlar, hayvonlarning bolalariga onasini topishga yordam beramiz.

Qo'zichoq nimaning bolasi? (qo'yning bolasi)

Toychoq (otning bolasi)

Uloqcha (echkining bolasi)

Mushukcha (mushukning bolasi)

Bo'taloq ... (tuyaning bolasi)

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol uslublar (innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalardan foydalanib, ta'limning samaradorligini ko'tarishga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan- kunga kuchayib bormoqda. Zamonaviy texnologiyalar qo'llanilganda pedagoglar egallayotgan bilimlarni o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga qaratilgan. Pedagog bu jarayonda shaxs va jamoaning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi. Shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchi vazifasini bajaradi. Bunday o'quv jarayonida pedagog asosiy figuraga aylanadi.

Pedagog olimlarning yillar davomida ta'lim tizimida

Nega o'qitamiz?

Nimani o'qitamiz?

Qanday o'qitamiz? degan savollarga javob izlash bilan bir qatorda

Qanday qilib samarali va natijali o'qitish mumkin?

degan savoliga javob beradilar. Bu esa olim va amaliyotchilarni o'quv jarayonini texnologiyalashtirishga, ya'ni «O'qitishni ishlab chiqarishga oid aniq kafolatlangan natija beradigan texnologik jarayonga aylantirishga urinib ko'rish mumkin» degan fikrga olib keladi.

Bunday fikrning tug'ilishi pedagogika fanida yangi pedagogik texnologiya yo'nalishini yuzaga keltiradi.

Bugungi kunda ta'lim muassalarining o'quv- tarbiyaviy jarayonda pedagogik texnologiyalardan foydalanishiga alohida e'tibor berilayotganligining asosiy sababi quyidagilardir:

Birinchidan: pedagogik texnologiyalarda shaxsni rivojlantiruvchi ta'limni amalga oshirish imkoniyatining kengligida. «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturida rivojlantiruvchi ta'limni amalga oshirish masalasiga alohida e'tibor qaratilgan.

Ikkinchidan: pedagogik texnologiyalar o'quv-tarbiya jarayoniga tizimli faoliyat yondashuvini keng joriy etish imkoniyatini beradi.

Uchinchidan: pedagogik texnologiya pedagogni ta'lim-tarbiya jarayonining maqsadlaridan boshlab tashxis tizimini tuzish va bu jarayon kechishini nazorat qilishgacha bo'lgan texnologik zanjirni oldindan loyihalashtirib olishga undaydi.

To'rtinchidan: pedagogik texnologiya yangi vositalar va axborot usullarini qo'llashga [asoslanganligi sababli](#), ularning qo'llanilishi «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» talablarini amalga oshirishni ta'minlaydi.

O'quv- tarbiya jarayonida pedagogik jarayonni to'g'ri tashkil etilishi pedagogning bu jarayonda asosiy tashkilotchi yoki maslahatchi sifatida faoliyat yuritishiga olib keladi. Bu esa tinglovchilardan ko'p mustaqillikni, ijodni va irodaviy sifatlarni talab qiladi.

Har qanday pedagogik texnologiyalarning o'quv- tarbiya jarayonida qo'llanilishi shaxsiy jihatdan kelib chiqqan holda tinglovchini kim o'qitayotganligi va pedagog kimni o'qitayotganiga bog'liq.

Pedagogik texnologiya asosida o'tkazilgan mashg'ulotlar yoshlarning muhim hayotiy yutuq va muammolarga o'z munosabatlarini bildirishlariga intilishlarini–oshirib, ularni fikrlashga, o'z nuqtai nazarlarini asoslashga imkoniyat yaratadi.

Hozirgi davrda sodir bo'layotgan innovatsion jarayonlarda ta'lim tizimi oldidagi muammoarni hal etish uchun yangi axborotni o'zlashtirish va o'zlashtirgan bilimlarini o'zlari tomonidan baholashga qodir, zarur qarorlar qabul qiluvchi, mustaqil va erkin fikrlaydigan shaxslarga aylanadi

Mavzu	yuzasidan	test	savollari
-------	-----------	------	-----------

1. Texnologiya – bu ...

A. grekcha ikki so'zdan - «texnos»-hunar va «logos»-fan so'zlaridan tashkil topib «hunar fani» ma'nosini anglatadi;

B. o'qituvchi tomonidan o'qitish vositalari yordamida o'quvchilarga ta'sir ko'rsatish;

C. hunar fani;

D. san'at.

2. Pedagogik texnologiyaning maqsadi - ...

A. yangiliklarni yetkazish;

- B. o'quvchi faolligini samarasini oshirishi;
- C. kam kuch va vaqt sarflab yuqori natijaga erishish;
- D. texnologiyalarni ishlab chiqish.

3. Pedagogik texnologiya metodikadan nima bilan farq qiladi?

- A. uzluksizligi bilan;
- B. tizimlilik bilan;
- C. samaradorlikni yuqoriligi bilan;
- D. texnologik xarakteri bilan.

4. Modul nima?

- A. eng kichik tarkibiy bo'lakni ifodalovchi tushuncha;
- B. pedagogik texnologiyani tashkil qiluvchi, tarkibiy bo'laklarni ifodalovchi tushuncha;
- C. miqdorlar to'plamini ifodalovchi tushuncha;
- D. miqdorlar to'plamini ifodalovchi tushuncha.

5. Ilg'or pedagogik texnologiyalar bo'yicha dars bosqichlarini belgilang.

- A. texnologik xarita, nazariya;
- B. nazariya, harakatli jarayon, amaliy jarayon;
- C. chaqiriq bosqichi, aqliy hujum, anglash bosqichi;
- D. anglash bosqichi, aqliy hujum, xulosa chiqarish.

1	2	3	4	5
A	C	D	B	C

4-Mavzu. Pedagogik jarayonni loyihalashtirish va rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyalari

Ta'limni didaktik loyihalash muammosini tasavvur etish		
Darajalari	Predmeti	Natijalari
V	<i>Ijtimoiy tajriba</i>	Ta'lim konsepsiyasi
IV	Fan	O'quv predmeti

III	Ma`lumot mazmuni	Dasturlar
II	Ta`lim mazmuni	Darsliklar
I	O`quv material	Ta`lim modeli

Ijtimoiy tajriba- didaktik loyiha manbai

O'tgan XX asrning keyingi 30 yili mobaynida mashhur didakt olimlar M.N.Skatkin, V.V.Kraevskiy rahbarligida ma`lumot mazmuniga pedagogik ishlov berish va didaktik loyihalarni tayyorlash nazariyasi hamda amaliyotida yangi yo`nalish asoslangan edi. Unda ijtimoiy tajriba mohiyatini tahlil qilib. Didaktik loyihalarni yaratish g'oyasi ishlab chiqildi.

Ma`lumot mazmuniga pedagogik ishlov berishning yangi g'oyasi shakllanishidagi 1-bosqich 1970-1980 yillarga to'g'ri keladi. Bu yillarda olimlar o'quv predmetlarini guruhlash, tabiiy va gumanitar sikldagi o'quv predmetlarida ma`lumot mazmunini moddiyilashtrish, ma`lumot mazmunining tarkibiy komponentlarini ajratish masalalarini o'rganishdi.

Ma`lumot mazmuniga pedagogik ishlov berishning yangi konsepsiyasi taraqqiyotidagi ikkinchi bosqich 1980-2000 yillarga to'g'ri keladi. Ma`lumot mazmuniga ishlov berish loyihalashning tarkibiy qismi sifatida ajratila boshlandi. qator olimlar (I.YA.Lerner, S.I. Visotskaya) ning tadqiqotlarida bilim, ko'nikma va malaka, ijodiy faoliyat tajribasi, munosabatlarni didaktik loyihalarning tarkibiy qismlari shaklida qarash va tahlil qilish g'oyasi qaror topdi. (Voprosi konstruirovaniya soderjaniya obshego srednego obrazovaniya.-M., 1980).

O'zbek maktablarida ta`limni loyihalashning ikki jihatdan ahamiyati bor ta`lim jarayonining yangi, pedagogik amaliyotda hali uchramagan loyihalash vositalarini izlab topish; original loyihalar asosida o'quv tarbiya jarayonining zamonaviy sifatlarini qayd etish.

Maktab ta`limida ko'zda tutilgan o'quv predmetlarining barchasi insoniyat tomonidan to'plangan ijtimoiy tajribani yoshlarga o'rgatishga yo'naltirilgan. Ijt. Tajriba ko'p shakl va ko'rinisharga ega bo'lib, uning umumiy asoslari falsafiy asarlarda yoritilgan.

Ijtimoiy tajriba qanday vazifalarni bajaradi?

Ijtimoiy tajriba jamiyatda uch xil asosiy vazifani bajaradi: a) o'zini yangi informasiyalar

bilan boyitish, o'z ta'sir doirasini kengaytirish; b) jamiyat uchun, uning bundan keyingi rivoji uchun moddiy ne'matlarni, ma'naviy boyliklarni etarli miqdorda ishlab chiqarish; v) ijtimoiy tajribani yoshlarga o'rgatish. Bu esa didaktik loyihalar asosida amalga oshiriladi.

Ijtimoiy tajriba va didaktik loyihaning o'xshash va farqli tomonlari nimada? Ular qanday funksiyalarni bajarishadi?


Ijtimoiy tajriba umuinsoniyatga taalluqli bo'lib, unda yashab o'tgan, yashayotgan avlodlarning hayotiy tajribalari, fikr-o'ylari, orzu-havaslari, bilimlari, erishgan natijalari va hatto faoliyatlari ham moddiylashgan. Didaktik loyiha yoshlarga mo'ljallab tuziladi. Ijtimoiy tajribaga pedagogik ishlov berilib, bolalarbop didaktik loyihalar tayyorlanadi.

Ularning jamiyadagi funksiyalari ham har xil. Ijtimoiy tajriba o'zini-o'zi asraydi, rivojlantiradi. Uning amal qilish shakllari ko'p: falsafa, fan, san'at, adabiyot, madaniyat, din, axloq, urf-odat, ishlab chiqarish usullari va vositalari. Didaktik loyiha esa jaamiyatda yoshlarni hayotga, ishlab chiqarishga tayyorlash funksiyasini bajaradi. Uning shakllari ikki guruhga ajratib o'rganiladi: o'quv rejasi, dasturi, predmeti, darslik, o'quv qo'llanmasi ma'lumot mazmuni darajasida; o'quv material, o'quv elementi, o'quv savoli, o'quv topshiriqlari kabilar esa ta'lim mazmuni darajasida tadqiq qilinadi.

Ijtimoiy tajriba tizim sifatida quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:

1. Tabiat, jamiyat va inson tafakkuriga oid bilimlar.
2. Ko'nikma va malakalar - avloddan-avlodga meros qilib qoldiriladigan faoliyat usullaridir.
3. ijodiy faoliyat tajribasi ijtimoiy tajribaning yana bir tarkibiy qismidir.
4. Ijtimoiy tajribaning yana bir tarkibiy qismi tabiat, jamiyat, ong hodisalariga munosabatdir.

Ijtimoiy tajribaning tarkibi



1. Didaktik loyihalashning an'anaviy turi. An'anaviy didaktik loyihalash uzoq tarixga ega. U Ya.A. Komenskiy yaratgan ilk darslik (Rasmlarda his qilingan narsalar dunyosi yoki dunyodagi barcha narsalar va hayotagi harakatlarning nomlari va rasmlari) dan tortib, hozirgacha davom etmoqda. Bunday loyihalash bolalarning xotirasiga mo'ljallangan bo'lib, unda ikki narsa - bilimlar tizimi va shu bilimlarga oid ko'nikmalar hisobga olinadi. Tafakkurni rivojlantirish ikkinchi darajada bo'ladi.
2. Didaktik loyihalashning zamonaviy turi. Pedagogik texnologiya g'oyalari, tamoyillari asosida loyihalashning qator afzalliklari bor. Ammo qator zaif tomonlari ham bor.
3. Didaktik loyihalashning tamoman yangi, original shakli¹ ga ko'ra ta'lim etaloni didaktik loyihalash vositasi sifatida o'rganilib, tahlil qilinadi. Yangi kompleks didaktik loyihalar o'quvchilarning tafakkuri hamda xotirasiga mo'ljallab tuziladi. Ularda o'quvchilarning ijodiy faoliyati ham, kayta eslash faoliyati xam optimal hisobga olinadi.

Ta'limni didaktik loyihalash konsepsiyasi. Bolalarning o'quv-biluv faoliyati va ijtimoiy tajriba komponentlarining o'zaro aloqadorligiga ko'ra didaktik loyihalashning quyidagicha turlarini farq qilamiz: bilim, g'oya, qarashlarni loyihalash; ko'nikma-malakalarni loyihalash; ijodiy faoliyat tajribasini loyihalash; munosabatlarni loyihalash.

O'quv materialli va uning turli shakllarini loyihalash.

«O'quv materiali» atamasini ilk bor Ya.A.Komenskiy «Tillarni o'qitishning yangi metodlari» asarida ishlatib : «Ta'lim - bu o'quvchilarni o'quv materiali bilan tanishtirishdir» -degan edi. (59). Uning yozishicha ta'lim uchlikdan iborat: o'qituvchi, o'quvchi va o'quv materiali. O'qituvchi - bilim beruvchi, o'quvchi bilimlarni idrok kiluvchi, o'quv materialisi esa- bu bilimlarning o'qituvchidan bolalarga harakati, siljishidir.

Biz ma'lumot mazmuni o'quv materiallarida moddiylashtiriladi, degan tezisga asoslanamiz. Bu tezisga ko'ra loyihalash jarayonlarini boshqarish ma'lumot mazmuniga atroflicha pedagogik ishlov berish, tanlanadigan o'quv materiallarini o'quvchilarning real bilish imkoniyatlariga moslashtirishni taqozo qiladi. Shu yul bilan hajm jihatidan ixcham, bolalarbop darsliklar yaratiladi. Yuqoridagi tezisga rioya qilish darsliklar hajmini boshqarish, axborotlarni optimal tanlash, ta'limning samaradorligini oshirish va sifatini yaxshilash imkoniyalarini oshiradi.

Darsliklarni loyihalashda ma'lumot mazmuni va ta'lim mazmuni tushunchalarini farqlash kerak. Ma'lumot mazmuni: yoshlarning ma'lumoti, rivojlanishi, tarbiyasini mo'ljallab hozirgi zamon fani, texnikasi, ishlab chiqarishi, fikrlashning umumiy asoslariga didaktik ishlov berish yo'li bilan tanlangan bilimlar, ko'nikma-malakalar, ijodiy faoliyat tajribasi va munosabatlar majmuidir. Ta'lim mazmuni, buni o'quv materialiga teng hodisa deb qaraymiz. Ma'lumot mazmuni ijtimoiy tajribani o'rganish, ta'lim mazmuni esa ta'lim jarayoni kontekstida qaraladi. Ta'lim mazmuni yoshlarni ma'lumotli qilish, tarbiyalash va rivojlantirish maqsadida ta'lim jarayoniga olib kirilgan bilim, ko'nikma-malaka, faoliyat usullari hamda tabiat, jamiyat va tafakkur hodisalarini emosional baholashga doir munosabatlardir. Ta'lim mazmuni ta'lim jarayoniga o'quv materiali shaklida olib kiriladi.

O'quv materiali ma'lumot mazmunini shakllantirishning eng oxirgi darajasi sanaladi. U ta'lim boshlanguncha turli normativ loyihalar - o'quv dasturi, o'quv darsligi tarkibida tayyor xolda bo'ladi. Ta'lim jarayonida esa o'quv-tarbiya ishlari o'quv materialini o'rganishdan boshlanadi. O'quv materiali ma'lumot mazmuni bilan ta'lim mazmuni o'rtasidagi oraliq zveno hisoblanadi. O'quv materiali asosida ikkilamchi loyihalar: dars konspekti, topshiriqlar tizimi, testlar, ta'lim etalonlari tuziladi.

O'quv materialining ikki xil tarkibiy tuzilishi - strukturasini farqlaymiz: o'quv materialining mantiqiy qurilishi; o'quv materialining didaktik qurilishi.

O'quv materialining didaktik qurilishi ikki xil tushuniladi: o'quv materialining keng (global) qurilishi; o'quv materialining tor (lokal) qurilishi. O'quv materialining keng qurilishini olimlar M.Skatkin, V. Kraevskiy, I.Lernenlar boshlab berishgan. Ularning yozishicha o'quv materiali bilimlar tizimi, ko'nikma va malakalar, ijodiy faoliyat tajribasi, munosabatlar tizimidan iborat.

O'quv materialini lokal tushunishda uch xil element ajratiladi: bilim, malaka, ko'nikma.

O'quv materialini keng hodisa sifatida qarab, uning tarkibida quyidagi elementlarni ajratamiz: Bilimlar tizimi, tushuncha, termin, faktlar, qonuniyatlar, nazariyalar, ko'nikma-malakalar tizimi, ijodiy faoliyat tajribasi, munosabatlar tizimi.

O'quv materiallarining shakllari ko'p. Ulardan biri o'quv topshirigidir. U qator hususiyatlarga ega: ularda o'rganilgan o'quv materiali mazmuni ham aks etgan, didaktik loyihada bolalarning o'quv-biluv faoliyati ham moddiylashtiriladi; didaktik loyihalarda o'quv-biluv faoliyati usullari ham beriladi.

O'quv materialini loyihalashning an'anaviy usullaridan biri mashqdir.

O'quv maqsadlari va vazifalarini loyihalash.

Ta'limni qanday qilib kafolatlangan natijaga olib keluvchi o'ziga xos texnologik jarayonga aylantirish mumkin? Qanday qilsa oddiy pedagog o'qitishda yuqori samaraga erisha oladi?

Sanoatda zamonaviy texnologiya mehnatni keng taqsimlashni ko'zda tutadi. Mahsulotni loyihalash va uni tayyorlash texnologiyasini yuqori malakali mutaxassislar amalga oshiradi. Bunda. Avvalo, barcha ikir-chikirlarini aniq, uzil-kesil ifodalaydigan, nima va qanday tayyorlanishi ko'rsatilgan loyiha ishlab chihiladi, shundan keyingina mahsulotni tayyorlash va ishlab chiqarishni tashkil etish boshlanadi.

Muayyan vazifani bajaruvchi ishchilar texnik xujjatlarning talablariga qat'iy rioya qiladilar. Natijada o'rta miyona mahorat bilan ancha murakkab vazifani bajarishga imkon yaratilib, tayyor mahsulotning yuqori sifati ta'minlanadi.

PT da ham o'qitish jarayonini loyihalash bosqichiga va avvalo, ta'limning kutilajak natijalariga alohida e'tibor qaratiladi. Texnologik yondashuvning dastlabki bosqichida didaktik vositalarni ishlab chiqishni bir guruh tajribali uslubchi o'qituvchilarga topshirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

PT ning o'ziga xos hususiyati shundan iboratki, unda o'quv maqsadlariga erishishni kafolatlaydigan o'quv jarayoni loyihalashtiriladi va amalga oshiriladi. Texnologik yondashuv, eng avvalo, tasvirlash emas, balki loyihalashtirilgan natijalarni amalga oshirish imkonini beruvchi amaliy ko'rsatmali tuzilmada o'z ifodasini topadi.

PT ni tushunish uchun asosiy yo'li anik belgilangan maqsadlarga qaratilganlik, ta'lim oluvchi bilan muntazam o'zaro aloqani o'rnatish. PT ning falsafiy asosi hisoblangan ta'lim oluvchining hatti-harakati orqali o'qitishdir.

Pedagog o'z oldiga o'quvchilar materialning mazmunini tushunib, o'zlashtirib olishsin, ma'lum bilimlarni egallabamaliyotda qo'llashga o'rgansin, degan maqsadni qo'yadi.

Lekin o'zlashtirish, tushunish, qo'llash nimani anglatadi? Pedagog o'z oldiga qo'ygan maqsadga erishganligini qanday biladi?

Pedagog jamiyatdan buyurtmani umumiy ko'rinishda oladi. Maqsadlarni aniqlashtirishning o'ziga xos pillapoyasini tuzish mumkin: jamiyatning umumiy talablaridan ta'lim tizimi vazifalariga, ulardan ma'lum o'quv yurti, o'quv predmeti, uning tematik bulimlari va alohida o'quv masalalariga.

- O'quv materialining rejasidan kelib chiqib, maqsadni belgilash. Masalan, «Navoiyning g'azallarini o'rganish», yoki «Birinchi bobning mazmunini o'rganish». Bunda maqsadga erishilganligini qanday aniqlash ko'rsatilmagan.
- **Maqsadni pedagog faoliyati orqali ifodalash.** M-n, «O'quvchilarni Buxoro amirligining davlat tuzilishi bilan tanishtirish» yoki «Linzalarda tasvir yasash usullarini ko'rsatish». Bunda ham ta'lim jarayonining aniq maqsadga erishganligini qanday bilish mumkinligi ko'rsatilmagan.
- O'quvchining intellektual, emosional, shaxsiy vojlanishining ichki jarayonlari va qonuniyatlari orqali o'quv maqsadini qo'yish. Masalan: «matematik tenglama echish ko'nikmasini rivojlantirish», «mavzuni o'tish jarayonida o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish». Bunda ham o'quv maqsadiga erishganlik haqida ko'rsatkichlarni topib bo'lmaydi.
- O'quv maqsadlarini o'quvchilar faoliyati orqali qo'yish. M-n, «aralash kasrlarni qo'shishga oid misollar echish». Bu erda o'qitishdan kutiladigan natija va uning oqibati e'tibordan chetda qolgan.

O'qitishning maqsadlarini ta'lim mazmuni, pedagogning yoki o'quvchining faoliyati orqali belgilash ta'limda kutilayotgan natijalar haqida aniq tasavvurga ega bo'lishga imkon bermaydi.

PT da nazarda tutiladigan maqsadlarni qo'yish uslubi o'zining ashyoviy xususiyatiga ega. Bu shundan iboratki, o'qitish maqsadlari o'quvchilar harakatida ifodalanadigan, anik ko'rinadigan va o'lchanadigan natijalar orqali belgilanadi.

AQSh, Angliya va boshqa mamlakatlarda o'quvchi va o'qituvchi uchun maqsadlarni alohida-alohida belgilash odatga kirgan. Bunda maqsadlar o'qituvchining faoliyatidan kelib chiqqan holda qo'yiladi (o'rgatish, tushuntirish, ko'rsatish, aytib berish va h.k), o'quvchining harakatlarida ifodalanadigan natijalar esa ta'limning vazifalari deyiladi. Vazifa talabaning tugallangan hatti-harakatini ifodalovchi atama bilan ifodalanishi shart.

Shunday qilib, an'anaviy o'quv jarayonida asosiy omil pedagog (va uning faoliyati) hisoblansa, PT da birinchi o'ringa o'qish jarayonidagi o'quvchilarning faoliyati quyiladi.

Ta'lim maqsadi shunday qo'yilishi kerakki, unga erishganlik haqida aniq xulosa chiqarish mumkin bo'lsin. Pedagogik adabiyotlarda vazifalar ba'zan «identifikatsiyalashgan (taqqoslanadigan) pedagogik maqsadlar deb ataladi»¹.

Vazifalarni yanada aniqlash maqsadida quyidagi qadamlarni qo'llash mumkin:

- har bir vazifalar guruhini «Dars yakunida talabalar quyidagilarni bajara olishlari lozim» deb boshlash;

- har bir vazifani raqamlash;
- har bir vazifani quyidagi fe'llardan boshlash: sanab o'ting, eslang, so'zlab bering, ko'rsatib bering, tanlang, hisoblang va boshqalar.
- har bir vazifani talaba so'zi bilan qo'yish;
- har bir vazifa faqat bitta natijani ko'zlasin;
- har bir vazifa «talabaning keyinchalik o'zini qanday tutishi kerakligiga ishora qilsin»;
- vazifalarni shunday yozish kerakki, uning ishlatilishini mezonlash va qanday qilib maqsadga erishilganligini aniqlash mumkin bo'lsin;

Vazifalar o'quv savollarini, mavzularni, bo'limlarni, butun fanni, nimalarni baholash kerakligini (og'zaki, yozma, test usulida) aniqlab beradi.

Xorijiy ta'lim amaliyotida quyidagi o'quv natijalarini darajalash tarqalgan²:

1. Tanishtiruv: mazkur fan sohasidagi asosiy tushuncha va tartiblar bilan tanishuv.
2. Asoslarni o'zlashtirish fan sohasining asosiy tushunchalarini qayta izhor(tasvir) etishni nazarda tutuvchi bosqich.

3. Egallash: fan sohasidagi asosiy tushuncha va tartiblarni muvaffaqiyatli tadbqiq etish.
4. To'liq egallash - mohirlik: mazkur fan sohasidagi asosiy tushuncha va tartiblarni samarali qo'llash va qolgan o'quvchilarga bilimlarni va ko'nikmalarni o'zlashtirish va mustahkamlash byicha yordam berish.

B.Blum taksonomiyasini («Taksonomiya» tushunchachi narsalarning tabiiy bog'liqligi va xususiyatlariga ko'ra ko'p bosqichli (ierarxik) tuzilishi asosida tavsiflash va tizimlashtiishni anglatadi) qo'llab, umumiy o'quv maqsadlarini shakllantirish mumkin. Ushbu taksonomiya bo'yicha o'quv maqsadlari kategoriyasiga mos keladigan fe'llar ro'yxati keltirilgan.

Bilish	Esga	tushirish	Tasvirlash
Eslab		qolish	Farqlash
Axborot	berish	Tanlab	olish
Aytish		Aytib	berish
Yozish			Takrorlash
Tushunish		Dalillash	Ko'chirish
Almashtirish		Qayta	ishlash
Muayyanlashtirish		Namoyish	etish
Belgilash			Izohlash
Tushuntirish		Ochib	berish
Foydalanish	Tadbiq	qilish	Aniqlash
Xisoblab	chikish	Amalga	oshirish
Namoyish		etish	Hisoblash
Foydalanish		Amalga	oshirish
O'qitish			Yechish
Tahlil	qilish	Keltirib	chiqarish
Ajratib		chiqish	Saralash
Umumlashtirish		Bo'lib	chiqish

Turlash	Tekshirib	ko'rish
Faraz	qilish	Guruhlash
Sintez	Kashf	qilish
Umumlashtirish		Birlashtirish
Birlashtirish	Barpo	etish
Rejalashtirish		Tuzish
Ishlab	chiqish	Loyihalash
Baholash	Tashhishtirish	Baholash
Isbotlash		Tekshirish
Ulchash	Nazoart	qilish
Asoslash		Taqqoslash
Qo'llab	quvvatlash	Solishtirish ¹

Pedagogik texnologiya asosidagi muayyan mashg'ulot loyihasini tuzish ketma-ketligi quyidagicha tavsiya qilinadi:

- o'quv predmetining ishchi dasturiga asosan o'qituvchining o'quv va tarbiya maqsadlarini shakllantirish;
- tayanch o'quv savollarini bloklarga ajratish(2 soatlik darsga 2-5ta);
- har bir o'quv savoli bo'yicha o'quvchilarning vazifalarini shakllantirish, unda quyidagilar ifodalanadi: 1) O'quvchi maqsadga erishgandan so'ng qiladigan hatti-harakati bilan tasvirlanuvchi fe'li orqali o'xshash o'quv maqsadi shaklida yoki 2) B.Blum taksonomiyasi o'quv maqsadlarining asosiy tushunchalari (bilish, tushunish, qo'llash, tahlil qilish, majmualash, baholash) shaklida;
- har bir vazifa bo'yicha shug'ullanish va mashqlar uchun o'quv materiallarini mustahkamlashni ta'minlovchi vazifalar (savollar, masalalar, test topshiriqlari) tuzish (odatda baholanmaydi);
- har bir tayanch o'quv mavzusi bo'yicha tarkibida og'zaki, yozma test savollari bo'lgan yakuniy nazorat topshiriqlari majmuini tuzish, ushbu majmua mavzularini mahsuldor va namoyish darajasida o'zlashtirilganligini baholay olish zarur;
- ko'zlangan maqsadga kafolatli erishuvni ta'minlovchi ishchi dasturini, o'qituvchi va o'quvchi maqsadi hamda nazorat savollariga mos ravishda dars mazmunini ishlab chiqish;

- o'qituvchi va o'quvchilar faoliyatining uzviyligini ta'minlagan holda darsning borishini loyihalash (asosiy joylarini);

6-Mavzu: PEDAGOGIK TEXNOLOGIYANING TARKIBIY QISMLARI, LOYIHALASH KETMA-KETLIGI.

R e j a

1. Yangi pedagogik texnologiyaning metodik asoslari, pedagogik texnologiyani ishlab chiqish bosqichlari.
2. Pedagogik tizim nazariyasi.
3. Didaktik masalalar va pedagogik texnologiyaning o'zaro munosabatlari.
4. O'quv materiallarini o'zlashtirish darajalari.
5. O'quvchi-talabalar bilimini baholash mezonlari.

Modellashgan pedagogik texnologiyani ishlab chiqish tartibi quyidagi ketma-ketlikdagi bosqichlarni o'z ichiga oladi: analitik, konseptual, maqsadli, mazmunli va jarayonli.

Pedagogik texnologiyani ishlab chiqishning **analitik bosqichida**, kadrlar tayyorlash milliy dasturi va kadrlar tayyorlash milliy modeli, o'quv predmetlari bo'yicha davlat ta'lim standartlari, ulardan kelib chiqadigan xulosalar va yosh avlodning har tomonlama rivojlanishiga yo'naltirilgan ta'lim mazmunini tanlash holatlari, tegishli mashg'ulotning umumiy, aniq maqsadga erishish uchun ta'limning tashkiliy shaklini tanlash hisobga olinadi.

Pedagogik texnologiyani ishlab chiqishning **konseptual bosqichida** ta'lim konsepsiyalari, ta'lim tizimi bosqichlarida nazarda tutilgan asosiy g'oyalar, ifodalangan xulosalar hisobga olinadi. Modelning tarkibiy tuzilishi umumiy o'rta ta'lim, akademik lisey, kasb-hunar kolleji, bakalavriat, magistratura, umuman sotsiumning tarkibi sifatida ifodalanadi. Bu ayniqsa, bosqichli ta'lim tizimining alohida elementlari uchun xarakterlidir.

Pedagogik texnologiyani ishlab chiqishning **maqsadli bosqichida** ta'lim muassasasi (o'rta maktab, akademik lisey, kasb-hunar kolleji, institut yoki universitet)ning uzoq muddatga mo'ljallangan maqsadi, ta'lim sohalari va shu blokda alohida o'quv predmetlarining istiqboldagi maqsadi, shuningdek alohida olingan o'quv predmeti tarixidagi aniq bir blokning ifodalanish maqsadi hisobga olinadi.

Pedagogik texnologiyani ishlab chiqishning **mazmunli bosqichida** ta'lim sohalari,

shuningdek shu blok tizimidagi o'quv predmetlari mazmunini tanlash tamoyillari va mezonlari aniqlanadi. Bloklar hamda ular tarkibidagi alohida elementlarning, ya'ni aniq o'quv predmetlarining mazmuni alohida olingan maqsad bilan bog'liq tarzda identifikatsiyasi o'quv predmetlari mazmunini tashkil etadigan yirik mavzularda aks etishi kerak.

Pedagogik texnologiyani ishlab chiqishning **jarayonli bosqichida** o'qituvchining vazifalari, shuningdek o'quvchilarning o'quv faoliyatini bajarishlariga yo'naltirilgan ta'lim turi namoyon bo'ladi. Bu jarayonning pedagogik texnologiyasida, o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro munosabatlarida demokratiyaga alohida o'rin beriladi.

Pedagogik texnologiya amaliyotga joriy etish mumkin bo'lgan (etiladigan) pedagogik tizim loyihasi ekanligi haqida oldingi mavzularda to'xtalib o'tgan edik. **Unda pedagogik tizim o'zi nima? Uning tarkibi qanday?** degan savollarga javob qidirsak.

Pedagogik tizim ma'lum shaxs sifatlarini shakllantirishga tartibli, aniq maqsadni ko'zlab va oldindan o'ylab pedagogik ta'sir etishni vujudga keltirish uchun zarur bo'lgan o'zaro bog'liq vositalar, usullar, jarayonlar yigindisidir. Har bir jamiyatda shaxsni shakllantirish maqsadi belgilab olinadi va unga mos pedagogik tizim mavjud bo'ladi. Agar maqsad o'zgarsa mavjud tizim ham o'zarishi muqarrardir. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» o'z mustaqil fikriga ega bo'lgan, har tomonlama rivojlangan shaxsni tarbiyalashni asosiy maqsad qilib qo'ydi. N.Saydahmedov ta'kidlaganidek : «Milliy dastur bizda ta'lim va tarbiya sohasida davlat buyurtmasi sifatida qabul qilinayapti»¹. Davlat buyurtmasi esa ta'lim va tarbiyaning umumiy maqsad va vazifalarini belgilab beradi.


Pedagogik tizim o'zaro bog'liq bo'lgan quyidagi invariantiv elementlardan tashkil topadi:

1. O'quvchilar (talabalar).
2. Ta'lim-tarbiya maqsadlari.
3. Ta'lim-tarbiya mazmuni.
4. Didaktik jarayon.
5. Tashkiliy shakllar.
6. Pedagog yoki O'TV

Chizmada

quyidagicha

ifodalanadi.



Bu pedagogik tizim, har qanday nazariyaga xos bo'lgani kabi ikki tushunchani qamrab oladi: didaktik masalalar va ularni amalga oshirishning pedagogik texnologiyasi.

Didaktik masalalar pedagogik tizim doirasida inson faoliyatining muhim sohasi sifatida aniq maqsad va unga erishish uchun shart-sharoitlar hamda bu faoliyat uchun axborotlar bo'lishi kerak.

Didaktik masalalarni hal etish maqsadi shaxsning ma'lum sifatlarini shakllantirish zarurati bo'lsa, shart-sharoitlar-o'quvchi (talaba)larning boshlang'ich sifat ko'rsatkichlari, axborot esa o'quv predmetining mazmuni yoki tarbiyaviy ta'siridir.

Har bir didaktik masala pedagogik tizimda o'ziga mos keladigan PT elementlari bilan hal qilinadi, ular: didaktik jarayon, o'qitishning tashkiliy shakllari hamda pedagog yoki o'qitishning texnik vositalari (O'TV)

Rasmda ijtimoiy buyurtma yo'nalishi didaktik masalalarga qaratilgan va bu bejiz emas:

ta'lim har doim jamiyat talablarini qondirishga xizmat qiladi va u ongli ravishda yoki induktiv tarzda tez, balki sekinlik bilan bu talablarga mos holda tuzatila boriladi.

Darhaqiqat XX1 asr bo'sag'asida ta'lim taraqqiyotining harakatlantiruvchi kuchi, haqqoniy dvigateli-bu o'zida didaktik masalalar va PT ni mujassamlashtirgan pedagogik tizim hisoblanadi. PT ning muvofaqqiyatli loyihalashtirish va yakuniy natijaning kafolatlanishi o'qituvchining didaktik masalalar mohiyatini anglab yetish darajasiga va darsda ularni to'g'ri belgilab olishiga bog'liqdir.

Milliy dasturda ta'lim-tarbiyaning maqsadi yangilanib: «O'tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to'la xolos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beradigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash»¹ deb belgilandi. Demak, ta'lim-tarbiyaning maqsadi yangilandi, unga mos holda mazmunning yangilanishi tabiiydir. Ta'lim mazmuni o'quv dasturlari, qo'llanma va drsliklarda o'z ifodasini topadi. Shuning uchun olimlarimizga fan sohalari bo'yicha ta'lim mazmunini ishlab chiqish vazifasi yuklatildi. Shunday qilib, pedagogik tizimda didaktik masalalarning o'z yechimini topishi Milliy dastur g'oyalarini ro'yobga chiqarishning muhim bosqichidir.

Agar pedagog (6) qo'lida bilimga chanqoq, iqtidorli o'quvchilar (1), fan maqsadiga (2) mos mazmun- dastur, o'quv qo'llanma, darsliklar (3) mavjud bo'lsa, u didaktik jarayonni (4) muvofaqqiyatli amalga oshirish uchun bilish faoliyatining tashkiliy shakllaridan (5) samarali foydalanib yangi pedagogik texnologiyani amaliyotga izchil va ketma-ket joriy etishi mumkin.

O'quv materialini o'zlashtirish darajalari. Kishi har qanday oqilona faoliyatni shu faoliyatni bajarish metodikasi haqida oldin o'zlashtirilgan axborotlar asosida bajaradi Bu ta'lim-tarbiya jarayoni uchun ham xarakterlidir. Bilib olingan harakatning mo'ljal asosi (HMA) aynan o'zlashtirib olinganidek yoki faoliyatning shart-sharoitga qarab o'zgartirilgan holda ishlatilishi mumkin. Bilib olingan axborotdan foydalanish usuli bo'yicha o'quv faoliyati reproduktiv va produktiv (mahsuldor) turlarga ajratiladi.

Reproduktiv faoliyatda o'zlashtirilgan HMA, uning algoritmlari va qoidalari faqat har xil ko'rinishlarda qayta ishlab chiqiladi, o'quv predmetida dastlab bilib olingan ma'lumotlarga o'quvchi faoliyati davomida biror yangi axborot qo'shmaydi. Masalan, talaba umumiy ta'lim, ixtisoslik bo'yicha o'quv qo'llanmalaridagi barcha masala (vazifa)larni ilgari o'zlashtirilgan (bilingan) qoidalar va algoritmlarga binoan yechadi, o'quvchining bunday faoliyati reprduktivlik doirasidagi harakatlaridir.

Mahsuldor faoliyat jarayonida o'quvchi har doim o'quv predmetida o'zlashtirib olinganiga nisbatan yangi harakat HMA yaratadi, ya'ni o'quv qo'llanmasining mazmunidan farq qiladigan yangi axborotni yuzaga keltiradi. Yangi axborotni yaratish doimo izlanuvchilik faoliyatida oldingi tajribaga suyanadi.

O'zlashtirishning to'rtta izchil darajasi bo'lib, bular: tanishuv, algoritmli, evristik va ijodiy darajalardir.

1-daraja (a-I). Agar masalada uni yechishning maqsadi, vaziyati va harakati ko'rsatilgan

bo'lsa, o'quvchidan bu uchala komponent masalaning tuzilishidagi barcha komponentlarga mos kelishi haqida xulosa chiqarishgina talab etiladi, bu bilish faoliyati hisoblanadi. O'quvchi uni ob'ektlar, jarayonlar yoki harakatlar haqidagi ilgari o'zlashtirilgan axborotni qayta idrok qilgandagina bajara oladi. Bu tashqaridan algoritmik ko'rinishda berilgan algoritmik faoliyatdir.

2- daraja (a-II) agar masala (vazifada) maqsad va vaziyat berilgan bo'lsa, o'quvchidan uni yechish uchun oldin o'zlashtirilgan (o'rganilgan) harakatni qo'llash talab etiladi, bu-reproduktiv algoritmik harakat. O'quvchi uni- bu harakatni bajarishning oldin o'zlashtirilgan mo'ljali haqidagi aborotni mustaqil qayta tiklab va qo'llab bajaradi. Buni tipik masala deyiladi.

3- daraja (a-III) Agar masala (vazifa)da maqsad berilgan bo'lib, lekin unga erishishning vaziyati noaniq bo'lsa, o'quvchidan esa vaziyatni aniqlash hamda notipik masalani yechish uchun oldin o'zlashtirilgan harakatni qo'llash talab etilsa, bu evristik tipdagi mahsuldor harakat hisoblanadi. Evristik faoliyat tayyor algoritm yoki qoidaga binoan bajarilmaydi, balki, harakatning o'zi davomida yaratilgan yoki qayta o'zgartirilgan algoritm yoki qoidaga binoan bajariladi.

4- daraja (a-IV). Agar vazifada faoliyatning maqsadi umumiy tarzdgagina ma'lum bo'lsa, maqsadga erishish uchun vaziyatni ham, harakatni ham izlab topish talab etilsa, bu ijodiy tipdagi mahsuldor faoliyatdir. Bunda haraktning yangi qoidasi yaratiladi, ijodiy-tadqiqotchilik faoliyati bajariladi.

O'quvchilar bilimini baholash. O'quvchilar bilimini nazorat qilish va baholash og'zaki, yozma va test nazorati shaklida bo'lishi mumkin. Nazorat qilish turlarining afzalliklari va kamchiliklari quyidagi jadval orqali ko'rishimiz mumkin.

Og'zaki, yozma va test vositasida nazorat qilish turlarining afzalliklari hamda kamchiliklari

Nazo-rat usuli	Afzalliklari	Kamchiliklari
Og'zaki	Tashkiliy jihatdan oson va oddiy. Pedagog bilan talabaning o'zaro munosabati, muloqati. Talaba javobini o'zi loyihalashtirgani uchun bilim doirasini kengroq aniqlash imkoniyati bo'ladi: • javobni rejalashtirish;	Ta'lim dasturiga (standartga) nisbatan tanlab olish xususiyatiga ega bo'ladi. Og'zaki sinov uchun ko'p vaqt sarflanishi. Bahoning ma'lum ma'noda sub'ektivligi. Ishonchlilik darajasining pastligi.

- zarur bilimlarni tanlab, Bahoning umumiyligi, ya`ni javob tizimlashtirish; uchun yagona baho qo'yiladi.
- fan tilida o'z fikrini aniq, ravshan bayon qilish malakasi;

o'z fikrini faktlar, misollar asosida isbotlash, zarur hollarda himoya qilish, mustaqil fikrlash qobiliyatiga ega bo'lish.

Yozma nazorat	Mustaqil yozma ish ijodiy qobiliyatlarni eng yuqori darajada rivojlantiradi.	Yozma ishlarni tekshirish uchun o'qituvchilarning ko'p vaqt sarflashi.
---------------	--	--

O'quv materiallarining o'zlashtirilish darajasi yozma ravishda hujjat asosida aniqlanadi.	Kompyuterdan foydalanish qiyin bo'ladi.
---	---

Yozma ish mezonlari aniq bo'lsa, bahoning xolisligi oshadi.

Ma`lum sharoitlarda yozma ishlarning ishonchliligi oshadi.

Talabaga o'z fikrini yozma bayon qilish malakasini oshirish imkonini beradi.

Tashqi yozma nazoratda xolisona baholash darajasi ancha yuqori bo'ladi.

Pedagogik test sinovlari	Xolisona pedagogik baholash vositasidir. Natija test o'tkazgan shaxsga bog'liq bo'lmaydi.	O'qituvchi bilan talaba o'rtasida jonli muloqat bo'lmaydi, talaba o'z fikrini og'zaki bayon qilish malakasini egallash imkoniga ega bo'lmaydi.
	Keng qamrovli bo'lib, katta hajmdagi o'kuv materialini umumiy ravishda nazorat qilish imkoniyatini beradi.	
	Kompyuterlar vositasida yaxshi avtomatlashtiriladi.	Dasturdan tashqari bo'lgan bilim va qo'nikmalarni namoyish etish imkoni yo'q.

Test natijasini komp`yuterga hisoblash moslamasi yordamida Sifatli test tuzish ancha murakkab kiritish va ularni qayta ishlash. ishdur.

Kompyuterli moslama test tizimlaridan foydalanish imkoni mavjud, bunda har bir keyingi topshiriq oldingi topshiriqning bajarilishiga ko'ra beriladi. Bu pedagogik baholash aniqligini oshiradi.

Bundan kelib chiqadiki, o'quv jarayonida og'zaki sinov, yozma ishlar va pedagogik test sinovlari o'zaro uyg'unlashtirilgan holda qo'llanilsa natija samaraliroq bo'ladi.

Test topshiriqlari mazmuniga ko'ra yopiq, ochiq, muvofiqlikni aniqlashga doir va davomiylikni to'g'ri belgilashga oid testlarga bo'linadi.

Yopiq test- test sharti savol yoki biror vazifa va qisqa javoblardan iborat bo'lib, ko'pincha javoblardan bittasi to'g'ri, qolganlari to'g'ri javobga o'xshashroq bo'ladi. Yopiq test deb atalishining boisi shundaki, o'quvchi quyilgan shartga o'z javobini berolmaydi, u testda keltirilgan javoblardan birini tanlashi lozim.

Misol. Predmet bo'yicha test topshiriqlari soni ko'payishi bilan pedagogik o'lchash (baholash) aniqligi qanday o'zgaradi?

A. Ortadi. V. Kamayadi. S. O'zgarmaydi. D. Qonuniyati yo'q.

Ochiq yoki qushimcha test topshiriqlari. Ochiq test vazifalari- kishiga o'z xohishiga ko'ra javob berish imkoniyatini yaratadi. Ochiq testlar, odatda bitta asosiy so'z yoki so'zlar tushirib qoldirilgan jumladir.

Misol. Yoshi va bilimi jihatidan bir xil bo'lgan ma'lum miqdordagi o'quvchilar guruhiga deyiladi.

To'g'ri javob: sinf.

Muvofiqlikni aniqlashga doir testlar. Bunda ikki xil tushuncha elementlari o'rtasidagi munosabatni aniqlash talab etiladi. Bunday topshiriqlar faqat bilimlarni nazorat qilish uchungina xizmat qilmay, balki ma'lumotlarni yodda saqlash, bilim doirasini kengaytirishga ham xizmat qiladi.

Misol.

1. zAn`anaviy ta`lim kamchiliklari.
2. Noan`anaviy ta`lim kamchiliklari.

- A. O`quvchilar passiv ishtirokchi bo`lib qoladilar.
- V. Ko`p vaqt talab etiladi.
- S. O`quvchilarni har doim ham etarlicha nazorat qilish imkoniyati past.
- D. Murakkab material o`rganildayotganda ham o`qituvchi rolining past bo`lishi.
- E. Motivasiya vujudga kelmaydi.
- F. O`quvchilar o`kituvchi bilan bevosita muloqatga kirisha olmaydi.
- To`g`ri javob: 1- A, E, F. 2- V, S, D.

Davomiylik (izchillik)ni to`g`ri belgilashga oid test topshiriqlari. Bunday topshiriqlar turli haraktlar, fikr yuritishlarda izchillik mavjudligini tekshirish, aniqlash uchun ishlatiladi. Mazkur topshiriqlar algoritmik bilimlarni nazorat qilish imkonini beradi, algoritmik bilimlar esa kasbiy ta`limning so`nggi bosqichlarida katta ahamiyatga ega.

5-Mavzu. Maktabgacha ta`lim muassasalarida muammoli o`qitish va individuallashtirilgan ta`lim texnologiyalari

Ta`lim-tarbiyaning samarasini ta`minlash uchun, albatta, tarbiyalanuvchining yoshini va qiziqishlarini inobatga olishimiz zarur. Chunki bolaga bilim berish jarayonida uning yoshini, imkoniyatlarini, qiziqishlarini inobatga olmay turib, kutilgan natijaga erisha olmaymiz. Kichkintoy uchun soddaroq bo`lgan narsalarni tushuntirish va bu narsalarni iloji boricha rang-barang, yorqin ranglarda, o`yinlar, pedagogik texnologiyalar, ertaklar orqali amalga oshirish maqsadga muvofiq. Bola ulg`aygan sari unga berilayotgan bilimlar hajmi ham, murakkablik darajasi ham oshib boraveradi. Bosqichma-bosqich beriladigan ta`lim kichkintoyning mustahkam bilimga ega bo`lishida muhim omil bo`ladi.



Maktabgacha ta'lim muassasasiga kichkintoylarni jalb qilishda mamlakatimizda shanba-yakshanbalik bog'chalar ham tashkil etilgan. Bunday muassasalarda bolalar yoshiga qarab guruhlariga ajratiladi. MTMga to'liq qatnashi uchun ma'lum ma'noda zamin hozirlanadi. Chunki ba'zi bir bolalar boshqalariga qaraganda tez chiqisha olmaydigan, injiq yoki indamas bo'lishadi, bu turdagi bolalarning ijtimoiy muhitga moslashishi uchun, eng avvalo, tarbiyachi ular bilan yakka tarzda shug'ullanishi kerak. Kichkintoyni sekin-astalik bilan jamoaga qo'shish usul va yo'llarini izlashi, buning uchun u bolaning xarakterini, qiziqishlarini va unga yoqadigan faoliyat turlarini yaxshilab o'rganib, tahlil qilib olishi kerak. Yig'ilgan materiallarga asoslangan holda bola bilan ishlashda turli metodlarni, pedagogik texnologiyalarni qo'llash samarali natija beradi. Pedagogik texnologiya, bu – pedagog tomonidan qo'llaniladigan ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi uslublar yig'indisi hisoblanadi. Pedagogik texnologiyaning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, unda o'quv maqsadlariga erishishni kafolatlaydigan o'quv jarayoni loyihalashtiriladi va amalga oshiriladi. Texnologik yondashuv, eng avvalo, tasvirlash emas, balki loyihalashtirilgan natijalarni amalga oshirish imkonini beruvchi amaliy ko'rsatmali tuzilmada o'z ifodasini topadi.

Pedagogik texnologiyalarni qo'llashning bir qator afzalliklari mavjud bo'lib, ular quyidagilar:

- ta'lim samaradorligini oshiradi;
- bola qiziqishlarini kuchaytiradi;
- ta'lim mazmunini yaxshi o'zlashtirishga xizmat qiladi;
- motivatsiyaning yuqori darajada bo'lishini ta'minlaydi;
- o'tilgan mashg'ulotni yaxshi o'zlashtirishga yordam beradi;
- tarbiyalanuvchilarning mustaqil fikrlay olish qobiliyatining shakllanishiga olib keladi.

Maqsadga yo'naltirilganlik, oraliq natijalarni tashxisli tekshirib borish, ta'limni alohida o'qitish lavhalariga ajratish kabi usullar hozirgi kunga kelib qayta-qayta takrorlash mumkin bo'lgan ta'lim texnologiyasi g'oyasida mujassamlashgan.

Bundan tashqari, pedagogik texnologiyalar o'z ichiga quyidagi omillarni qamrab oladi:

- ta'limda umumiy maqsadning qo'yilishi;
- tuzilgan umumiy maqsaddan aniq maqsadga o'tish;
- o'quvchilarning bilim darajalarini dastlabki (tashxisli) baholash;
- bajariladigan o'quv tadbirlar majmuasi (bu bosqichda o'quvchilar bilan muloqot asosida ta'limga joriy tuzatishlar kiritilishi lozim);
- natijani baholash.

Bundan ko'rinib turibdiki, ta'limda texnologik yondashuv bolaning o'zlashtirish darajasini, dunyoqarashini sezilarli darajada o'zgartiradi. Shu bilan birga ta'lim jarayoniga qiziqishining ortishiga xizmat qiladi.



2018 йилнинг 5 апрель куни «Мактабгача таълим тизимини янада рағбатлантириш ва ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги қарорни имзолади. Ҳужжатга кўра, нодавлат боғчаларни қуриш учун текинга ер участкалари тақдим этилади.

мактабгача таълим соҳасида давлат-хусусий ҳамкорликнинг қуйидаги шакллари жорий этилди:

— нодавлат боғчалар биноларини қуриш учун, шу жумладан фаолият кўрсатувчи давлат боғчалар ҳудудида текинга доимий фойдаланиш учун ер участкаларини тақдим қилиш;

— мавжуд давлат мактабгача таълим муассаларини жиҳозлаш ва реконструкция қилиш шарти билан нодавлат мактабгача таълим муассасалари объектлари қуриш учун текинга ер участкаларини бериш;

— бўш турган давлат мулк объектларини, шу жумладан, фаолият кўрсатмаётган давлат боғчаларни «нўл» қийматда сотиш;

— давлат боғчаларининг фойдаланилмаётган бинолари ва корпусларини текинга узоқ муддатли фойдаланишга бериш.

— Давлат-хусусий ҳамкорлик шаклига қараб хусусий ҳамкорга қуйидаги инвестициявий мажбуриятлар юклатилади:

— ижтимоий муҳофазага мухтож оилалардан бўлган муайян миқдордаги тарбияланувчиларга имтиёзли ота-она пулини белгилаш (мазкур ҳудуддаги давлат мактабгача таълим муассасалари учун белгиланган миқдордан ошмаган ҳолда);

— хусусий ҳамкорга бириктирилган боғчаларни қуриш, реконструкция қилиш, капитал таъмирлаш ва жиҳозлаш бўйича ишларни амалга ошириш.

— Давлат-хусусий ҳамкорликда ташкил қилинган нодавлат боғчалар қуйидагилардан озод этилди:

— икки йил муддатга белгиланган тартибда тасдиқланадиган рўйхат бўйича олиб кириладиган жиҳозлар, инвентарлар, ўқув қўлланмалари ва ўйин майдонлари учун божхона тўловларидан;

— фаолиятни бошлаган кундан бошлаб ўн йил муддат давомида давлат мақсадли жамғармаларига барча мажбурий тўловлар ва мажбурий ажратмаларни тўлашдан.

Шунингдек, 2018 йил 15 апрелдан ходимларининг ўртача йиллик сони 100 нафаргача бўлган боғчалар кичик тадбиркорлик субъектларига тоифасига киритилди.

Шавкат Мирзиёев: фарзандларимиз энг яхши шароитларга муносиб.



Давлатимиз раҳбари Шавкат Мирзиёев Олтиариқ тумани Қапчиғой маҳалласидаги «Smart kids» мактабгача таълим муассасасини бориб кўрди.



Давлат-хусусий шерикчилик асосида ишга туширилган ушбу боғча 210 болага мўлжалланган. Кичкинтойларни ҳар томонлама ривожлантирадиган ўйинчоқ ва инвентарлар билан жиҳозланган. Бугунги кунда Фарғона вилоятида 38 та шундай замонавий мактабгача таълим муассасаси ишга тушган.

Шу ерда мактабгача таълим тизимида татбиқ этилаётган Интеграциялашган мониторинг электрон тизими тақдироти ўтказилди. Бу тизимда мамлакатдаги ҳар бир боланинг туғилишидан то вояга етгунча бўлган ҳолати, соғлиги, ривожланиши, ўзлаштириши ҳақида маълумотлар жамланади. Шунингдек, унда тарбиячилар, боғчалар, уларга эҳтиёж тўғрисида ҳам барча ахборотлар бўлади.



Бу таълим-тарбия тизимининг асоси, ўзига хос ойнаси, деди Шавкат Мирзиёев. Ундаги маълумотларни кузатиш, таҳлил қилиш орқали таълим-тарбияда нималарга эътибор беришимиз кераклигини аниқлаймиз. Бизнинг фарзандларимиз энг яхши, замонавий шароитларга муносиб.



Президентимиз ушбу электрон тизимни маълумотлар билан тўлдириш, уни таълимнинг кейинги босқичларида ҳам қўллаш бўйича топшириқлар берди.

KEYSLAR BANKI

KEYSLAR BANKI 1-keys. ***"Maktabgacha ta'lim muassasalarining faoliyatini takomillashtirish tugrisida"***gi 528-son *u'ruriyaiyag* mazmuni, maksadini atroflicha yoritib bering.

Topishrits: Ushbu karorning kabul kilinishiga nima sabab buldi?

Muammo turi	Kelib chikish sabablari	X,al etish yullari

2-keys. ***"Davlat maktabgacha ta'lim muassasasi tugrisidagi Nizomniig mak/sadini SWOT - taxlili yordamida yoritib bering.***

	Kuchli tomoni	
	Ojiz tomoni	
	Imkoniyatl	

	ari	
	Xavflar	

3-keys. Tushunchalar taxlili jadvalini tuldiring:

tushunchalar	mazmuni
Konstitutsiya	?
konsepsiya	?
bola	?
yoshlar	?
xukuk	?
milliy dastur	?

4-keys. Uzbekiston Respublikasida xokimiyatlar bulinishi prinsipi shunda kunradiki, mamlakatda konun chikaruvchi xokimiyat Uzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan amalga oshiriladi.

Topshirik; Xozirgi kunda sonun chitsaruvchi orgshiartshg davlat mexanizmida tutganurni kursating

MUSTAKIL TA'LIM MAVZULARI

MUSTAKIL TA'LIM MAVZULARI Mustakil ishni tashkil etishning shakli va mazmuni

Tinglovchi mustakil ishni muayyan modulni xususiyatlarini xdsobga olgan xolda kuyidagi shakllardan foydalanib tayyorlashi tavsiya etiladi:

- me'yoriy xujjatlardan, ukuv va ilmiy adabiyotlardan foydalanish asosida modul mavzularini urganish;
- tarkatma materiallar buyicha ma'ruzalar kismini uzlashtirish;
- maxsus adabiyotlar buyicha modul mavzulari ustida ishlash;
- tinglovchining kasbiy faoliyati bilan boglik bulgan modul mavzularni chukur urganish.

Mustakil ta'lim mavzusi

1. "Uzbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi - inson xukuk va erkinliklarining kafolati" ma'lumotlar bazasini shakllantirish.
2. Bola xukuklari tugrisidagi konvensiyaning mazmun-moxiyatini urganish.
3. "Bola xukuklari kafolatlari tugrisida"gi konunning mazmun- moxiyatini urganish.
4. "Bolalarni ularning salomatligiga zarar keltiruvchi axborotdan ximoya kilish tugrisida"gi konunni urganish.

Oila kodeksida bolalarning xukuklarga oid koidalarning mazmuni bilan tanishish

GLOSSARIY

Mazmuni

("constitution" lotincha suz bulib, "tuzish" degani) "koida" va "nizom" ma'nolarini anglatadi. Konstitutsiyada jamoat va davlat tuzilishi, davlat xokimiyati va boshqaruvining asoslari, fukarolarning asosiy xukuk; va majburiyatlari anik; belgilab beriladi

insonning davlat bilan munosabatdagi xukukiy xolatini, uning iqtisodiy, siyosiy va madaniy soxdlardagi imkoniyatlarini tavsiflash tushunchasi

xukuk;ning etakchi tarmogi, shuningdek, xukukiy fanlar va ukuv-ta'limi turlaridan biri. Konstitutsiya va konstitutsiyaviy xukukning farki shundan iboratki, konstitutsiya birgina konun xisoblansa, konstitutsiyaviy xukuk juda kup xukukiy manbalarni, shuningdek, konstitutsiyani uz ichiga oluvchi butun bir xukukiy tarmokni kamrab oladi

fukarolarning Uzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 24- moddasida mustaxkamlab kuyilgan asosiy xukuklaridan biri. "Yashash xukuki xar bir insonning uzviy xukukidir. Inson xudyotiga suikasd kilish eng ogir jinoyatdir" konundan farkli ularok deklaratsiya xukuk va erkinliklarni e'lon kiladi, konstitutsiya esa fukarolar uchun xam, shu davlat xududida yashovchi odamlar uchun xam majburiy ravishda amal kilishni urnatadi

Davlat xalk xujaligining tegishli soxdsiga oid me'yorlarni belgilovchi, Oliy Majlisda kabul kilinadigan, soxdning strategik rivojlanishini ifodalovchi, uzok

muddatga muljallangan, takomillashib boruvchi xujjat. Tegishli sox,a yoki mux,im ob'ektga, vokeylikka nisbatan chikarilgan Uzbekiston Respublikasi Prezidentining topshirik va kursatmalarini ifodalovchi me'yoriy xujjat. ijro etish muddati tezlikni, operativlikni talab etuvchi vakolatli idoralar rax,barlari tomonidan chikariladigan me'yoriy xujjat.

Soxdga oid vakolatga ega bulgan tashkilotlarning turli rax,barlari tomonidan davlat konuni, PF va VM ^arorlari xdmnda yukori tashkilotlarning turli kursatmalar ijrosini ta'minlash xdmnda korxona, muassasa, ashkilotlar bopu'aruvini amalga oshirish uchun chikarilgan me'yoriy xujjat

Dasturning information-uslubiy ta'minoti

Mazkur fanni o'qitish jarayonida ta'limning zamonaviy metodlari, pedagogik va axborot-kommunikasiya texnologiyalari qo'llanilishi nazarda tutilgan:

- ma'ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentasion va elektron-didaktik texnologiyalaridan;

- amaliy mashgulotlarida zamonaviy pedagogik texnologiyalaridan- aqliy hujum, guruhli fikrlash, klaster va keys stadi kabi usul va texnikalardan keng foydalaniladi.

Didaktik vositalar

Jihozlar va uskunalar, moslamalar: elektron doska - Hitachi, LCD-monitor, elektron ko'rsatgich (ukazka).

video-audio uskunalar: video va audiomagnitofon, mikrofon, kolonkalar.

kompyuter va multimediali vositalar: kompyuter,Delltipidagi proyektor,DVD-diskovod, Web-kamera, video-ko'z (glazok).

Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati

Rahbariyat adabiyotlari:

1. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni. -T.: O'zbekiston. 1997 y
2. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, -T.:O'zbekiston. 1997 y
3. Maktabgach ta'lim konsepsiyasi.-T.:2008 y

Asosiy adabiyotlar

- 1.Yo'ldoshev J "Ta'lim yangilanish yO'lida" T.: O'qituvchi. 2000 yil
- 2.Aripov.M.M. Informatika.1-2 .T.:TYI 2004 yil
- 3.Ishmuxamedov.R.J. va boshqalar "Ta'limda innovatsion texnologiyalar". T.: Istetod. 2008 yil.

Qo'shimcha adabiyotlar

- 1.U.Tolipov, J.Usmonboyev “Pedagogik texnologiya: nazariyasi va amaliyoti” T: “Fan va texnologiya” 2002
- 2.Sh.A.Sodiqova “Maktabgacha pedagogika”. “Tafakkur sarchashmalari” T:. 2013 y
- 3.N.M.Kayumova “Maktabgacha pedagogika”. “TDPU” nashriyoti T:. 2013 y
- 4.F.Qodirova, SH.Toshpo‘latova, M.A’zamova. “Maktabgacha pedagogika”.-T., “Ma’naviyat”. 2013
- 5.SH.Shodmonova. maktabgacha ta’lim pedagogikasi. fan va texnologiya. -T:, 2008.

Elektron ta’lim resurslari

1. [www. tdpu. uz](http://www.tdpu.uz)
- 2.www. pedagog. uz
- 3.www. Ziyonet.uz
- 4.www. edu. uz
5. tdpu-INTRANET. Ped

“Maktabgacha ta’limda mutaxassislikka kirish” FANIDAN TEXNOLOGIK MAJMUUA Seminar mashg’ulotlarining virtual materiallari SEMINAR MASHG’ULOTLARINING TEXNOLOGIK LOYIHALARI Texnologik pasport 1-mavzu: O‘zbekistondada maktabgacha ta’lim muassasalarini tuzilishi va turlari Seminarga ajratilgan vaqt – 2 soat Talabalar soni – 30 nafar O‘quv mashg’ulotining shakli va turi Seminar O‘quv mashg’uloti ning tarkibiy tuzilmasi 1. Mashg’ulotni boshlash va tashkiliy masalalarni hal qilish. 2. “Blits-so‘rov” asosida talabalarning mavzuga oid tayanch tushunchalarni o‘zlashtirish holatini baholash. 3. “Kichik esse” metodi asosida talabalar tomonidan o‘quv kursining o‘ziga xosligi, obekti va predmeti to‘g‘risidagi bilimlarning o‘zlashtirish darajasini aniqlash, ularning ta’lim tizimida maktabgacha ta’limning ahamiyatini tushuna olish darajasini baholash. 4. “6x6x6” metodi asosida talabalarning O‘zbekistonda maktabgacha ta’lim muassasalarining tuzilishi to‘g‘risidagi bilimlarini aniqlash. 5. “Ijodiy ish” metodi asosida talabalarning maktabgacha ta’limni turlaridan xabardorlik darajasini baholash. 6. “Klaster” metodi asosida talabalar ishtirokida maktabgacha ta’lim tizimi bo‘yicha “Zamonaviy maktabgacha ta’lim muassasalari portreti”ni yaratish. 7. Mashg’ulotni yakunlash. O‘quv mashg’ulot ning maqsadi Talabalar tomonidan mavzu mohiyatini o‘rganilish holatini tahlil qilish, ularning O‘zbekistonda va xorijiy davlatlarda maktabgacha ta’lim tizimini rivojlanishi haqidagi umumiy tasavvurini baholash

Pedagogik vazifalar: 1. “Blits-so‘rov” asosida talabalarning mavzuga oid tayanch tushunchalarni o‘zlashtirish holatini baholash. 2. “Kichik esse” metodi asosida talabalar tomonidan o‘quv kursining o‘ziga xosligi, obekti va predmeti to‘g‘risidagi bilimlarning o‘zlashtirish darajasini aniqlash, ularning ta’lim tizimida maktabgacha ta’limning ahamiyatini tushuna olish darajasini baholash. 3. “6x6x6” metodi asosida talabalarning O‘zbekistonda maktabgacha ta’lim muassasalarining tuzilishi to‘g‘risidagi bilimlarini aniqlash. 4. “Ijodiy ish” metodi asosida talabalarning maktabgacha ta’limni turlaridan xabardorlik darajasini baholash. 5. “Klaster” metodi asosida talabalar ishtirokida maktabgacha ta’lim tizimi bo‘yicha “Zamonaviy maktabgacha ta’lim muassasalari portreti”ni yaratish O‘quv faoliyati natijalari: 1) talabalarning mavzu mohiyatini yorituvchi tayanch tushunchalarga oid bilimlari mustahkamlanadi; 2) talabalar tomonidan o‘quv kursining umumiy mohiyati chuqur o‘zlashtiriladi; 3) talabalar kasbiy faoliyatni tashkil etishda pedagogik bilimlarga egalik muhimligini anglab yetadilar; 4) talabalar O‘zbekistonda maktabgacha ta’limni tuzilishini chuqur anglab yetadilar; 5) talabalarning maktabgacha ta’lim tizimi borasidagi bilimlari boyiydi; Ta’lim metodlari “Blits-so‘rov”, “Kichik esse”, “Klaster”, “Sxema”, “Ijodiy ish” va “Test” texnologiyalar Ta’limni tashkil etish shakli seminar, guruhli Didaktik vositalar Mavzuga doir adabiyotlar, plakatlari, talabalarning ijodiy ishlari Ta’limni tashkil etish sharoiti Maxsus texnik vositalar bilan jihozlangan xona Nazorat Joriy nazorat, savol-javob, kichik test Texnologik karta 1-mavzu: Maktabgacha ta’lim yo‘nalishida mutaxassislikka kirish fanining ahamiyati Ish bosqich lari va vaqti Faoliyat mazmuni O‘qituvchi Talaba 1-bosqich. O‘quv mashg’ulotinin g tashkiliytayyorgarlik bosqichi (15 daqiqa) 1. Seminar mashg’ulotining maqsadi va kutilayotgan natijalarni bayon etadi. 2. Talabalarni faollikka undaydi. 3. Talabalarni “Blits-so‘rov”, “Kichik esse”, “6x6x6”, “Ijodiy ish”, “Klaster”, “Sxema” va “Test” texnologiyalarining mohiyati bilan tanishtiradi. 4. Kichik guruhlarni shakllantiradi. 5. Talabalarni kichik guruhlarda ishlash shartlari bilan tanishtiradi. 5. Talabalar, kichik guruhlar faoliyatini nazorat qilib boradi. 6. Mashg’ulotni tashkil etishdan kutilgan natijaga erishilganlik darajasini baholaydi. 7. Mashg’ulotni yakunlaydi 1. O‘qituvchi nutqni tinglaydilar. 2. “Blits-so‘rov”, “Kichik esse”, “6x6x6”, “Ijodiy ish”, “Klaster”, “Sxema” va “Test” texnologiyalarining mohiyati bilan tanishadilar va ular

asosida ishlash ko'nikmalarini o'zlashtiradilar. 3. Kichik guruhlar tarkibida faollik ko'rsatadilar. 4. Tengdoshlarining ijodiy ishlari bilan tanishadilar. 5. Tengdoshlari bilan bahsga kirishadilar. 6. Mavzu bo'yicha o'zlashtirgan bilimlarni yanada boyitadilar 2-bosqich. Asosiy qism – bilimlarni mustahkamlash bosqichi (55 daqiqa)

1. Blits-so'rov asosida talabalarning mavzuga oid tayanch tushunchalarni o'zlashtirish holatini baholaydi.
2. Kartochkalar yordamida talabalar tomonidan o'quv kursining umumiy mohiyatini o'zlashtirish darajasini aniqlaydi.
3. Suhbat asosida talabalarning pedagogik bilimlarga egalik ahamiyatini tushuna olish darajasini baholaydi.
4. Talabalarni kichik guruhlariga jalb qilish orqali O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tuzilishi borasidagi bilimlarini tahlil qiladi.
5. Talabalarning ijodiy ishlarini o'rganish orqali maktabgacha ta'lim tizimidan xabardorlik darajasini o'rganadi hamda "Zamonaviy pedagog portreti"ning yaratilishini ta'minlaydi.

1. "Blits so'rov" savollariga javob beradilar. 2. Kartochkalar yordamida tashkil etiluvchi suhbat jarayonida faol ishtirok etadilar. 3. Suhbat jarayonida pedagogik bilimlarga egalikning ahamiyatini tushuna olishlarini ko'rsatadilar. 4. Kichik guruhda tarkibida O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tuzilishi borasidagi bilimlarini namoyon etadilar. 5. Ijodiy ishlarni taqdim etish orqali maktabgacha ta'lim tizimidan habardor ekanliklarini ko'rsatadilar va "Zamonaviy pedagog portreti"ni yaratishda ishtirok etadilar. 3-bosqich. Yakuniy qism (10 daqiqa)

1. Talabalarning mashg'ulotlardagi ishtiroklarini tahlil qiladi va baholaydi.
2. Mashg'ulot maqsadi va kutilgan natijalarga qay darajada erishilganlikni xulosalaydi.
3. Talabalarning mashg'ulot yuzasidan fikrlari bilan tanishadi.
4. Navbatdagi mashg'ulot mavzusini e'lon qiladi, talabalarga mustaqil ishlash uchun topshiriq beradi, ularni topshiriqni baholashga oid mezonlari bilan tanishtiradi.

1. Mashg'ulotdagi ishtiroklari darajasidan xabardor bo'ladilar. 2. Mashg'ulot maqsadi ga erishishdagi shaxsiy ishtiroklarini baholaydilar. 3. Mashg'ulotning tashkil etilishi yuzasidan fikr bildiradilar. 4. Navbatdagi seminar mavzusidan xabardor bo'ladilar va o'qituvchi tomonidan berilgan topshiriqni yozib oladilar

SEMINAR MASHG'ULOTLARINING TEXNOLOGIK LOYIHALARI

Ta'lim berish texnologiyasining modeli 1-mavzu Maktabgacha ta'lim yo'nalishida mutaxassislikka kirish fanining ahamiyati Mashg'ulot uchun materiallar

Talabalar o'quv faoliyatini baholash mezonlari: 2,0 ball – "a'lo" (5); 1,5 ball – "yaxshi" (4) 1,0 ball – "qoniqarli" (3); 0,5 ball – "qoniqarsiz" (2)

Mashg'ulot rejasi: 1. Mashg'ulotni boshlash va tashkiliy masalalarni hal qilish. 2. "Blits-so'rov" asosida talabalarning mavzuga oid tayanch tushunchalarni o'zlashtirish holatini baholash. 3. "Kichik esse" metodi asosida talabalar tomonidan o'quv kursining o'ziga xosligi, obekti va predmeti to'g'risidagi bilimlarning o'zlashtirish darajasini aniqlash, ularning ta'lim tizimida maktabgacha ta'limning ahamiyatini tushuna olish darajasini baholash. 4. "6x6x6" metodi asosida talabalarning O'zbekistonda maktabgacha ta'lim muassasalarining tuzilishi to'g'risidagi bilimlarini aniqlash. 5. "Ijodiy ish" metodi asosida talabalarning maktabgacha ta'limni turlaridan xabardorlik darajasini baholash. 6. "Klaster" metodi asosida talabalar ishtirokida maktabgacha ta'lim tizimi bo'yicha "Zamonaviy maktabgacha ta'lim muassasalari portreti"ni yaratish. 7. Mashg'ulotni yakunlash.

I. Mavzu yuzasidan topshiriq "Blits-so'rov" metodi asosida quyidagi savollariga javob qaytaring:

1. Maktabgacha ta'lim tushunchasining ma'nosi nima?
2. O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tuzilishi haqida nimalarni bilasiz?
3. O'zbekiston va xorijiy maktabgacha ta'lim tizimining farqli tomonlaridan xabardormisiz?
4. Maktabgacha ta'lim tushunchasi qanday ma'noni anglatadi?

II. Kichik guruhlarda ishlash uchun topshiriq Kartochkalar asosida beriladigan quyidagi savollarga javob qaytaring: 1. Uzluksiz ta'lim tizimida Maktabgacha ta'limning tutgan o'rni. 2. Maktabgacha ta'limning maqad va vazifalari 3. O'zbekistonda

maktabgacha ta'limning o'ziga xosligi nimada. 4. O'zbekistonda ta'lim bosqichlariga nimalar kiradi. 5. Maktabgacha ta'lim deganda nimani tushunasiz? 6. Maktabgacha ta'limning o'ziga xosligi. Topshiriq ustida ishlash bosqichlari Talabalar berilgan savolga qisqa muddatda, qisqa va aniq javob qaytara olishlari lozim Guruh yoki juftlikda ishlashda bir nafar talaba berilgan savolga javob qaytaradi, uning sheriklari yoki guruhdoshlari javobni to'ldirishlari mumkin, biroq, fikrlar takrorlanmasligi lozim Metodni qo'llashda mavzuga doir tayanch tushunchalar, asosiy g'oyalarning mohiyati talabalar tomonidan og'zaki, yozma yoki tasvir (jadval, diagramma) tarzida yoritilishi mumkin Topshiriq ustida ishlash bosqichlari 1) o'qituvchi mavzu yuzasidan talabalar o'zlashtirishlari lozim bo'lgan masalalarga oid savollarni ishlab chiqadi; 2) talabalar savollar bilan tanishtiriladi; 3) ular savollar yuzasidan mulohaza yuritib, masalaning mohiyatini yuritishga kirishadilar; 4) agarda talabalarning javoblari qoniqarli deb topilsa, navbatdagi savol beriladi; 5) bordi-yu, javob qoniqarli deb topilmasa, u holda o'qituvchi talabaga aynan mana shu masalani oydinlashtirishga yordam beradigan qo'shimcha savol beradi; 6) o'rganilayotgan masalaning mohiyati to'la yoritilgach, suhbat jarayoniga yakun yasaladi III. Kichik guruhlarda ishlash uchun topshiriqlar "6x6x6" metodi asosida O'zbekistonda maktabgacha ta'lim muassasalarining tuzilishi niqyidagi topshiriqlar bo'yicha yoritilgan: 1. "Ta'lim to'g'risi" dagi Qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da Maktabgacha ta'limning yoritilishi. 2. Maktabgacha ta'lim muassasasi va uning barkamol avlodni tarbiyalashdagi o'rni. 3. Maktabgacha ta'lim muassasasida ta'limni tashkil etish va unga qo'yilgan Davlat talablari. 4. Maktabgacha ta'lim muassasasida ta'limni tashkil etishda tarbiyachiga qo'yilgan talablar. 5. Maktabgacha ta'lim muassasasida ta'limni tashkil etishning o'ziga xosligi 6. Maktabgacha ta'limning bugungi ta'lim tizimidagi o'rni. IV. Talabalar uchun topshiriq "Ijodiy ish" metodi asosida annotatsiya, sxema, jadval yoki diagramma ko'rinishida xorijda maktabgacha ta'lim tuzilishi to'g'risidagi qarashlarini yoritilgan Topshiriqni bajarish bosqichlari 1-qadam Talabalar 6 nafardan bo'lib, kichik guruhlariga birlashtiriladilar 2-qadam Guruhlar o'rtaga tashlangan muammo (masala)ni muhokama qiladilar 3-qadam Topshiriq bajarilgach, o'qituvchi 6 ta guruhni qayta tuzadi 4-qadam Avvalgi 6 ta guruhdan bittadan vakil bo'lgan yangi guruhlar tuziladi 5-qadam Guruh a'zolari jamoadoshlariga avvalgi guruhida topilgan muammo yechimi haqida ma'lumot beradi 6-qadam Barcha guruhlarining yechimlari jamoada muhokama qilinadi Zamonaviy maktabgacha ta'lim Namuna asosida "Klaster" metodi asosida talabalar ishtirokida maktabgacha ta'lim tizimi bo'yicha "Zamonaviy maktabgacha ta'lim muassasalari portreti"ni yarating Topshiriqni bajarishga qo'yiladigan yagona talab: Talabalar mantiqan to'g'ri fikrlay olishlari, shaxsiy mulohazalarini dalillar bilan isbotlay bilishlari lozim Texnologik pasport 2-mavzu: O'zbekistondada maktabgacha ta'lim muassasalarini rivojlanish tizimi Seminarga ajratilgan vaqt – 2 soat Talabalar soni – 30 nafar O'quv mashg'ulotining shakli va turi Seminar O'quv mashg'uloti ning tarkibiy tuzilmasi 1. Mashg'ulotni boshlash, tashkiliy masalalarni hal qilish. 2. "Savol-javob" asosida talabalarning mavzuga oid tayanch tushunchalarni o'zlashtirish holatini baholash. 3. "Debat" asosida talabalarning maktabgacha ta'lim muassasalarini O'zbekistonda tashkil etilishining birlamchi bosqichi to'g'risidagi tushunchalarga egaliklarini baholash. 4. "Muammoli vaziyat" metodi asosida talabalarda maktabgacha ta'lim rivojlanishida kadrlar masalasi to'g'risidagi bilimlarning shakllanganligini o'rganish. 5. "6x6x6" metodi asosida talabalarning maktabgacha ta'lim rivojlanishida viloyatlarda ta'limni tashkil etish to'g'risidagi bilimlarini tahlil qilish. 6. Talabalar ishtirokida "Maktabgacha ta'lim muassasalarini rivojlanish tizimi" mavzusida sxema, jadval yoki klasterlarni yaratish. 7. Mashg'ulotni

yakunlash. O'quv mashg'ulot ning maqsadi Talabalarda shakllangan Maktabgacha ta'lim muassasalarini rivojlanish tizimiga oid nazariy va amaliy bilimlarni mustahkamlash va boyitish Pedagogik vazifalar: 1.Talabalarining mavzuga oid tayanch tushunchalarni o'zlashtirish holatini baholash. 2.Talabalarining maktabgacha ta'lim muassasalarini O'zbekistonda tashkil etilishining birlamchi bosqichi to'g'risidagi tushunchalarga egaliklarini baholash. 3.Talabalarda maktabgacha ta'lim rivojlanishida kadrlar masalasi borasidagi bilimlarning shakllanganligini o'rganish. 4.Talabalarining maktabgacha ta'lim rivojlanishida viloyatlarda ta'limni tashkil etish haqidagi bilimlarini tahlil qilish. 5. Talabalar ishtirokida "Maktabgacha ta'lim muassasalarini rivojlanish tizimi" mavzusida sxema, jadval yoki klasterlarni yaratish. O'quv faoliyati natijalari: 1) talabalarining mavzu mohiyatini yorituvchi tayanch tushunchalarga oid bilimlari mustahkamlanadi; 2)talabalar tomonidan maktabgacha ta'lim muassasalarini O'zbekistonda tashkil etilishining birlamchi bosqichi to'g'risidagi bilimlar chuqur o'zlashtiriladi; 3) talabalar maktabgacha ta'lim rivojlanishida kadrlar masalasi to'g'ri baholash imkoniyatiga ega bo'ladilar; 4) talabalarining maktabgacha ta'lim rivojlanishida viloyatlarda ta'limni tashkil etish to'g'risidagi bilimlari mustahkamlanadi; 5) talabalar "Maktabgacha ta'lim muassasalarini rivojlanish tizimi" mavzusidagi sxema, jadval yoki klasterlarni yaratish orqali mavzuga oid bilimlarini yanada mustahkamlaydilar va boyitadilar Ta'lim metodlari savol-javob, debat, muammoli vaziyatlar, "Klaster", "Sxema" texnologiyasi, test so'rovi Ta'limni tashkil etish shakli seminar, guruhli Didaktik vositalar Mavzuga doir adabiyotlar, plakatlar, talabalarining ijodiy ishlari Ta'limni tashkil etish sharoiti Maxsus texnik vositalar bilan jihozlangan xona Nazorat Joriy nazorat, savol-javob, kichik test Texnologik karta 2-mavzu: O'zbekistondada maktabgacha ta'lim muassasalarini rivojlanish tizimi Ish bosqich lari va vaqti Faoliyat mazmuni O'qituvchi Talaba 1-bosqich. O'quv mashg'ulotining maqsadi va kutilayotgan natijalarni bayon etadi. 2. Talabalarni faollikka undaydi. 3. Talabalarni savol-javob, "Debat", "Muammoli vaziyatlar", "Klaster" hamda "Sxema" texnologiyalarining mohiyati bilan tanishtiradi. 4. Kichik guruhlarini shakllantiradi. 5. Talabalarni kichik guruhlarda ishlash shartlari bilan tanishtiradi. 5. Talabalar, kichik guruhlar faoliyatini nazorat qilib boradi. 6. Mashg'ulotni tashkil etishdan kutilgan natijaga erishilganlik darajasini baholaydi. 7. Mashg'ulotni yakunlaydi. 1. O'qituvchi nutqni tinglaydilar. 2. "Debat", "Klaster", "Muammoli vaziyatlar hamda "Sxema" texnologiyalarining mohiyati bilan tanishadilar va ular asosida ishlash ko'nikmalarini o'zlashtiradilar. 3. Kichik guruhlar tarkibida faollik ko'rsatadilar. 4. Tengdoshlarining ijodiy ishlari bilan tanishadilar. 5. Tengdoshlari bilan bahsga kirishadilar. 6. Mavzu bo'yicha o'zlashtirgan bilimlarni yanada boyitadilar. 2-bosqich. Asosiy qism – bilimlarni mustahkamlash bosqichi (55 daqiqa) 1. Savol-javob asosida talabalarining mavzuga oid tayanch tushunchalarni o'zlashtirish holatini baholaydi. 2. Debat asosida talabalarining maktabgacha ta'lim muassasalarini O'zbekistonda tashkil etilishining birlamchi bosqichi to'g'risidagi tushunchalarga egaliklarini baholaydi. 3. Muammoli vaziyatlar asosida talabalarda maktabgacha ta'lim rivojlanishida kadrlar masalasi oid bilimlar shakllanganligini o'rganadi. 4. Kichik guruhlarda ishlashni tashkil etish orqali talabalarining maktabgacha ta'lim rivojlanishida viloyatlarda ta'limni tashkil etish to'g'risidagi bilimlarini tahlil qiladi. 5. Talabalar ishtirokida "Maktabgacha ta'lim muassasalarini rivojlanish tizimi" mavzusida sxema, jadval yoki klasterlarning yaratilishini ta'minlaydi. 1. O'qituvchitomonidan berilgan savollariga javob qaytaradilar. 2. Debatda ishtirok etish maktabgacha ta'lim muassasalarini O'zbekistonda tashkil etilishining birlamchi bosqichi to'g'risidagi tushunchalarga egaliklarini namoyon

